

BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTON MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 2-yanvaridan chiqib bormoqda. ● 2024-yil 16-avgust, №33 (2095)



VATANIMIZ SHA'NINI ULUG'LAGAN

ZAMONAMIZ QAHRAMONLARI



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

ARALASH SAYLOV TIZIMI

SIYOSIY PARTIYALARNING MAS'ULIYATINI VA OBRO'-E'TIBORINI OSHIRADI



O'zbekistondagi keng qamrovli islohotlar natijasida davlat organlari o'z e'tiborini odamlarga qaratdi. Yangi tendensiya sifatida "inson – jamiyat – davlat" qoidasi shakllanib, aholida ertangi kunga ishonch kuchaymoqda. Davlat boshqaruvida yangicha tafakkur va zamonaviy siyosiy madaniyatga ega kadrlar kirib kelmoqda.



2017-yildan boshlangan demokratik o'zgarishlar mamlakatni xalqaro miqyosda obro'li va mas'uliyatli davlatga aylantirdi. Shu bilan birga, jahon hamjamiyatidagi o'zgarishlar davlat boshqaruvida yangi qarorlar qabul qilishni talab etmoqda, jumladan saylov tizimini takomillashtirish yo'nalishida ham.

Bugungi kunda barcha siyosiy partiyalar o'z dasturlarini shakllantirib, targ'ibot ishlarini olib bormoqda. Keyingi yetti yil ichida partiyalarning jamiyatdagi mavqei yuksalib, ularning moddiy ta'minoti yaxshilangan. Saylovchilar partiyalarni demokratik davlatning asosiy tayanchi sifatida qabul qila boshladilar.

Aralash saylov tizimi, ya'ni majoritar-proporsional tizimning asosiy maqsadi saylov tizimlarining afzalliklarini birlashtirish va ularning kamchiliklarini bartaraf etishdir. Proporsional saylov tizimi siyosiy partiyalarning rivojlanishiga turtki beradi, ko'pchilik saylov tizimi esa partiyalarning saylov jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Boshqa tomondan, ko'pchilik saylov tizimi esa partiyalarning saylov jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, chunki bu tizimda har bir partiya o'z nomzodlari orqali aniq okruglarda g'alaba qozonishga intiladi. Natijada partiyalar aholi bilan yaqindan ishlashga, ularning muammolarini hal qilishga va o'z elektoratini saqlab qolishga harakat qiladi. Bu esa partiyalar va saylovchilar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va partiyalarning jamiyatdagi rolini oshiradi. Shu tariqa aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarning faoliyatini kuchaytiradi va ularning mas'uliyatini oshiradi, shu bilan birga saylov tizimining samaradorligini ta'minlaydi.

Xalqaro tajribalar shundan dalolat beradiki, aralash saylov tizimi turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, partiyalar o'rtasida raqobatni kuchaytiradi. Masalan, Yaponiya, Yangi Zelandiya va Qirg'iziston kabi mamlakatlarda aralash saylov tizimi muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Aralash saylov tizimi O'zbekistonda ham parlament saylovlarida tatbiq etilib, Qonunchilik palatasi deputatlarining yarmi majoritar tizim asosida, qolgan yarmi esa proporsional tizim bo'yicha saylanadi. Bu holat partiyalarning aholi bilan munosabatlarini kuchaytiradi va ularning mas'uliyatini oshiradi.

Shu tariqa aralash saylov tizimi orqali partiyalar o'z dasturlari orqali xalqni maqsad-muddaolarini ro'yobga chiqarishga ishonтира oladigan holga kelib, saylovchilar ishonchini qozonadi. Saylov jarayonida siyosiy partiyalarning faolligi ortgani saylovchilarning huquqiy va siyosiy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, aralash saylov tizimi O'zbekistonda siyosiy partiyalarning obro'si va mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, aralash saylov tizimi majoritar va proporsional elementlarni o'z ichiga oladi. Buning natijasida Qonunchilik palatasi deputatlarining yarmi majoritar tizim asosida, ya'ni saylovchilar tomonidan aniq nomzodlarga ovoz berish orqali saylanadi. Qolgan yarmi esa siyosiy partiyalarning ro'yxatlari asosida, ya'ni partiya berilgan ovozlar bo'yicha taqsimlanadi. Shu tariqa, saylovchilar 75 ta deputatlik o'rni uchun bevosita nomzodlarni tanlaydilar, qolgan 75 ta o'rin esa partiyalar orasida saylov natijalariga ko'ra taqsimlanadi.

Bu tizim partiyalarga saylov jarayonida kengroq ishtirok etish imkonini beradi va ularning aholi bilan bog'liq faoliyatini kuchaytiradi. Natijada saylovchilarning huquqiy va siyosiy ongi yuksalib, partiyalarga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Demak, aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarning mamlakatdagi demokratik jarayonlardagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda aralash saylov tizimi joriy etilishi bilan saylov jarayonida ham nomzodlar, ham siyosiy partiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu holat saylovchilarga aniq nomzodlarning shaxsiy sifatlarini, siyosiy pozitsiyalarini o'rganish imkonini beradi, shu bilan birga partiyalarning dasturlari va maqsadlarini inobatga olgan holda ovoz berish imkonini yaratadi. Natijada har bir saylovchi o'zi tanlagan nomzod yoki partiya orqali davlat boshqaruvidagi ishtirokini his qiladi.

Aralash tizimning joriy etilishi siyosiy partiyalarning aholi orasidagi nufuzini yanada mustahkamlaydi, chunki partiyalar o'z dasturlarini targ'ib qilishga, saylovchilar bilan yaqin aloqa o'rnatishga ko'proq ahamiyat qaratishga majbur bo'ladilar. Bundan tashqari, partiyalar davlat boshqaruvidagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida o'z elektoratiga yanada yaqin bo'lishga va ularning manfaatlarini himoya qilishga intiladilar.

Shu tariqa O'zbekistondagi aralash saylov tizimi demokratik an'analarni rivojlantirishga, siyosiy partiyalarning mas'uliyatini oshirishga va saylovchilarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, davlat boshqaruvining shaffofligini va xalq bilan yaqinligini ta'minlaydi.

F. MUHITDINOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori



Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari tantanali kutib olindi.

Vatanimiz

SHA'NINI ULUG'LAGAN ZAMONAMIZ QAHRAMONLARI

...Toshkent xalqaro aeroporti har doimgidan ham gavjum. Bu yerda qo'llarida dasta-dasta gul ko'targan go'zal qizlar, yurt bayrog'ini ko'targan yigitlar, yuzlaridan nur yog'ilib turgan nuroniylar, Olimpiya o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarimizning ota-onalari, keng jamoatchilik vakillari jam bo'lgan.

Biz qalbida quvonch va iftixor hissi jo'sh urgan, o'g'lining tarixiy natijasi ila faxrlangan, farzandi bilan bo'lajak diydor onlarini intiqlik bilan kutayotgan Bahodir Jalolovning onasi Sabohat Yoqubovani suhbatga tortdik:

– Ochig'i, o'g'limning har qanday g'alabasini katta hayajon bilan qabul qilaman. Hozir ham hayajonlanyapman, etim jimirlab ketyapti, o'g'lim Olimpiadaning ikki karra chempioni bo'ldi, – deydi Sabohat opa. – O'g'limning g'alabasi butun O'zbekiston xalqini ruhlantirib yubordi. Bahodirning Vatanimiz dovruq'ini olam uzra tarannum etayotganidan, el-yurtimizga xizmat qilayotganidan faxrlanaman. Uning g'alabasi mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaldagi yorqin ifodasidir.

...Soat 21:10. Sportchilarimizni olib qaytayotgan maxsus avialayner Toshkentga qo'ngani e'lon qilindi. Orziqib kutilgan lahzalar yetib keldi. Butun dunyo nigohi qadalgan Parij sport arenalarida O'zbekiston nomini sharaflagan sportchilarimiz davlatimiz bayrog'ini baland ko'targan holda yurtimiz zaminiga qadam qo'ydi. Karnay-surnay sadolari yangradi. Lobar qizlar ularga gullar taqdim etdi.

Tantanali marosimda so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi, O'zbekiston velosiped sporti federatsiyasi rahbari Tanzila Norboyeva va boshqalar mamlakatimizda yosh avlodning jismonan va ma'nian yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, sport bilan muntazam shug'ullanishi, o'z iste'dod va salohiyatini namoyon etishi uchun yaratilgan sharoitlar yuksak samara berayotganini alohida ta'kidladi. Xalqaro sport olamida yangi sahifa ochgan olimpiyachilarimizni yuksak g'alabalar bilan tabrikladi.

G'olib va sovrindor sportchilarimiz nomidan so'zga chiqqan boks bo'yicha Olimpiya o'yinlarining ikki karra mutlaq chempioni Hasanboy Do'smatov va oltin medal sohibi Diyora Keldiyorova bunday yuksak e'tibor va g'amxo'rlik uchun Prezidentimiz va xalqimizga samimiy minnatdorlik bildirdi. Kelgusida bundan-da yuksak g'alabalarni qo'lga kiritishga va'da berdi.

Qahramon sportchilarimizning ota-onalari nomidan boks bo'yicha Olimpiya o'yinlarining ikki karra chempioni, oltin medal sohibi Bahodir Jalolovning onasi Sabohat Yoqubova, taekvondo bo'yicha Olimpiada chempioni Ulug'bek Rashitovning onasi Oksana Danilenko so'zga chiqib, barcha sportchilarimiz va yurtdoshlarimizni qutladi.

Shundan so'ng Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasi hisobiga eng ko'p medal taqdim etgan boks bo'yicha terma jamoamiz bosh murabbiyi To'liqin Qilichev erishilgan olamshumul natijalar, sportchilarimizning tarixiy g'alabalari xususida to'xtaldi.

– Bizni bunday katta tantana bilan kutib olishganidan xursandmiz, – deydi XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari kumush medali sohibi Svetlana Osipova. – Bu e'tibor va g'amxo'rlik kelajakda yanada yuksak muvaffaqiyatlarga erishishimizda quvvat bo'ladi.

– Yoshlarga yuksak ishonch bildiradigan, biror nufuzli musobaqaga ketso, tantanali kuzatib, bayram qilib kutib oladigan mamlakat barmoq bilan sanoqli. Jonajon O'zbekistonimiz doimo bizni a'lo kayfiyatda kutib oladi. Hozir quvonchdan o'zimga sig'may ketyapman. Hammasi uchun rahmat! – deydi XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari ikki karra g'olibi Ulug'bek Rashitov. – Olimpiada nafaqat men uchun, balki butun terma jamoamiz uchun omadli bo'ldi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid g'oliblarga bag'ishlab she'r o'qidi.

Olimpiada g'olib va sovrindorlari, ishtirokchilari, ularning ota-onalari va yaqinlari usti ochiq avtobusga o'tirib, ketma-ket yo'lga chiqdi. Muzaffar sportchilarimizni kutib olish uchun yig'ilganlarning adog'i ko'rinmaydi. Ular yo'l chetida turnaqator tizilib, sportchilarimizni qo'llaridagi bayroqchalarni o'ynatgan holda tarixiy g'alaba bilan qutlaydi. Cheksiz iftixorga to'la hayqiriqlar, olqishlardan etingiz jimirlab ketadi.

“Parij – 2024”da Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilgan sportchilarimiz O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasiga yetib keldi. Karnay-surnay sadolari yangradi. Yorqin g'alabalari bilan butun xalqimizni xushnud etgan sportchilarimizga zar to'nlar kiydirildi. Shuningdek, g'olib va sovrindor sportchilarga Prezident sovg'alari – “Chevrolet Tahoe”, “BYD Song Plus Champion (605 km, Flagship)” va “BYD

Song Plus Champion (150 km, Flagship)” avtomobillari, xonadon kalitlari va pul mukofotlari topshirildi.

Mutlaqo yangicha asosda bunyod etilgan ta'lim-tarbiya, sport va madaniyat maskanlarida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, O'zbekistonning buyuk kelajagini o'z kuch-quvvati, aql-zakovati bilan quradigan yosh avlod kamol topmoqda. Ular nufuzli xalqaro musobaqalarda, Olimpiada va jahon chempionatlarida O'zbekiston yoshlari hech kimdan kam emasligini va hech qachon kam bo'lmasligini amalda isbotlayotgani barchamizni quvontiradi.

“Parij – 2024”da g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarimizning aksariyati 20-25 yoshda. Ular mustaqillik yillarida tug'ilib voyaga yetgan, istiqbol inshootlarida shug'ullangan. Yoshlarimizning g'alabasini kuzatar ekansiz, ta'lim-tarbiya va sport sohalarida amalga oshirilgan ishlarning yorqin samarasini ko'rasiz. Buni sportchilarimizning birgina yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki misolida ham ko'rish mumkin. E'tibor bersangiz, yurtimizning olovqalb sportchilari yozgi Olimpiya o'yinlaridan hech qachon medalsiz qaytmagan.

1996-yil Atlantada o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida sportchilarimiz bittadan kumush va bronza medal, 2000-yili Sidneyda bitta oltin, bitta kumush va ikkita bronza, 2004-yilgi Afina Olimpiadasida ikki nafar sportchimiz oltin, bir nafari kumush, uch nafari bronza, 2008-yilgi Pekin Olimpiadasida 1 oltin, 2 kumush, 3 bronza, 2012-yilgi London Olimpiadasida bitta oltin, ikkita bronza medalni qo'lga kiritgan. “Rio – 2016”da 4 ta oltin, 2 ta kumush, 7 ta bronza medalga sazovor bo'lgan olimpiyachilarimiz Tokio Olimpiadasida 3 oltin va 2 ta bronza medal sohibi bo'ldi. Bu galgi Olimpiya o'yinlarida esa 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalga ega bo'lgan sportchilarimiz mustaqilligimizning 33 yilligiga munosib tuhfa tayyorladi.

Yana bir fakt. “Parij – 2024”da dunyoning 206 davlatidan 10 714 nafar sportchi qatnashdi. Ular orasidan 84 davlat sportchilarigina shohsupaga ko'tarildi. Oltin medalni qo'lga kiritganlar yanada kam – 62 ta. O'zbekiston sportchilari esa 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza, jami 13 ta medal jamg'arib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. O'zbekiston sport delegatsiyasi Osiyoda to'rtinchi, MDH

davlatlari va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida birinchi o'rinni egalladi.

Bokschilarimiz 5 ta oltin medal bilan Xitoy, Xitoy Taypeyi, Jazoir, Kuba, Irlandiya, Qozog'iston, Ukraina, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, AQSh va Ozarbayjon kabi boks eng rivojlangan davlat sportchilarini ortda qoldirdi.

Prezidentimizning “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida”gi qarori sportchilarimizning ushbu nufuzli musobaqada yuksak natijalarni qayd etishida muhim dasturilamal bo'ldi.

XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida Diyora Keldiyorova (dzyudo, -52 kg), Ulug'bek Rashitov (taekvondo WT, -68 kg), Razambek Jamalov (erkin kurash, -74 kg), Hasanboy Do'smatov (boks, -51 kg), Abdumalik Xalokov (boks, -57 kg), Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev (boks, -71 kg), Lazizbek Mullajonov (boks, -80 kg), Bahodir Jalolov (boks, +92 kg) oltin medalni qo'lga kiritdi. Akbar Jo'rayev (og'ir atletika, -102 kg), Svetlana Osipova (taekvondo WT, +67 kg) kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Muzaffarbek To'raboyev (dzyudo, -100 kg), Alisher Yusupov (dzyudo, +100 kg) va G'ulomjon Abdullayev (erkin kurash, -57 kg) bronza medalga sazovor bo'ldi.

XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarining eng muhim voqealari yurtimiz sport ixlosmandlari uchun dzyudo, taekvondo va boks musobaqalarida kuzatildi. Hamyurtimiz Diyora Keldiyorova oltin medalni qo'lga kiritib, dzyudo sporti tarixida yangi sahifa ochgani, taekvondo WT bo'yicha ayollar o'rtasida Svetlana Osipova kumush medalga sazovor bo'lishi, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, taekvondochimiz Ulug'bek Rashitov faoliyatida ikkinchi marotaba Olimpiada chempionligi shohsupasiga ko'tarilishi mamlakatimiz sportining yangi zarvarag'i bitilishini ta'minladi.

Xalqimizning cheksiz iftixoriga sabab bo'lgan, barchamizni Vatan sha'ni yo'lida jipslashtirgan “Parij – 2024” Olimpiya o'yinlarining g'oliblik tantanalari Milliy olimpiya qo'mitasida yakunlangan bo'lsa-da, uning shukhi, harorati, g'oliblik shamoli endi sportchilarimiz istiqomat qilayotgan hududlarda, mahalla va xonadonlarda davom etadi.

Javohir TOSHXO'JAYEV,
To'liqin RO'ZIYEV,
O'ZA muxbirlari



Uchuvchilar o'rtasida mashhur bir ibora bor: hech qachon ikkita reys bir xil bo'lmaydi. Cheksiz koinot, o'zgaruvchan harorat har qanday parvoz uchun alohida tayyorgarlik talab etadi.

YUKSAK PARVOZDAGI

Xabaringiz bor, avgust oyining uchinchi yakshanbasi "O'zbekiston Respublikasining Havo floti kuni" etib belgilangan. Sana munosabati bilan Xonobod aerodromida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugdagi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlariga qarashli harbiy qism shaxsiy tarkibi hamda O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti kursantlari ishtirokida amaliy parvoz mashqlari o'tkazildi.

So'nggi yillarda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlarini yanada takomillashtirish, harbiy uchuvchilarning professionallik darajasini oshirish, aviatsiya hamkorligidagi dala-o'quv mashg'ulotlarini real vaziyatlarga yaqinlashtirgan holda olib borish bo'yicha yuqori texnika va bilimlarga erishildi. Ushbu parvozlar mohiyatida harbiy aviatsiya instituti kursantlari ishtirokida uchuvchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, yosh mutaxassislarni kasbiy malakasini oshirish, turli jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash hamda mahoratli uchuvchi shaxsiyatini yaratish kabi muhim vazifalar yotadi.

Erta tongdanoq tibbiy ko'rikdan o'tgan uchuvchi-yo'riqchilar SU-25 va L-39 harbiy samolyotlari qarshisida saf tortdi. Avvalo, jismonan sog'lomlik, doimiy salomatlik ko'rigidan o'tish va yuqori jismoniy ruhiy tetiklikka erishish muvaffaqiyatli parvozning muhim bo'lagi sanaladi.

Kerakli ko'rsatmalarni olgandan keyin uchuvchilar 5 soatlik amaliy parvozga kirishdi. "Ustoz-shogird" an'analari davom etayotgan ushbu mashg'ulotlarda tajribali yo'riqchilar yosh uchuvchilar bilan birga parvozni amalga oshirdi.

Uchuvchi uchun xavfsizlik doim birinchi o'rinda turishi kerak. Ustozlar favqulodda vaziyatlardagi tartib-qoidalarini doim yodda

USTOZ-SHOĞIRLAR



tutish, parvoz oldidan tekshiruvlarni mukammal olib borish shartligini ta'kidlashdan charchamaydi.

Darvoqe, parvozgacha kursantlar yillar davomida egallangan bilim va nazariya, ekstremal vaziyatlardagi qarorlarning ahamiyati va zaruratini yurakdan his qilgan holda yetib kelishadi. Chunki yuqori tezlikda har qanday mayda amallarning natijasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kursantlar aviatsiya nazariyasi, shu jumladan aerodinamika, navigatsiya, meteorologiya va parvoz qoidalarini chuqur anglagan bo'lishlari zarur.

Besh soatlik parvoz davomida uchuvchilar o'zaro hamkorlikda samolyot dvigatelini o'chirgan holatda qo'ndirish, SU-25 samolyotida juftlik parvozlarini amalga oshirish, L-39 samolyotida past-balandlikda murakkab parvoz mashqlarini bajarish, aviatsiya instituti kursantlari bilan aylana bo'ylab o'quv mashq parvozlarini olib borish kabi murakkab manyovrlarni bajarishdi. Jarayonlar davomida kursantlar aqliy chidamlilikni rivojlantirish, stressni yengish, tez qaror qabul qilish va bosim ostida diqqatni jamlash kabi o'quvlarni puxta o'zlashtirdi.

Belgilangan vazifalar o'z vaqtida mohirona ado etilganidan so'ng ham ish faoliyati tahlili, xatolarni muhokama qilish va to'g'rilash jarayonlari uzoq vaqt davom etdi. Ustoz o'z shogirdlarining parvozdagi xatti-harakatlariga tanqidiy yondashar ekan, o'z navbatida, yaxshi bajarilgan manyovrlar va vazifalarni ham e'tirof etib o'tdi. Kursantlarni o'ziga bo'lgan ishonchi va salohiyatini, avvalo o'zlari baholash zaruriyatini ham bot-bot eslatdi. Zero o'z-o'zini shaffof baholash mahorati doimiy yuksalib borishning oltin kalitidir.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"



Ofitser kadrlar — armiyaning asosiy tayanchi



Harbiy sohada olib borilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri ma'nau yetuk, intellektual salohiyatli, strategik tafakkurga ega professional harbiy kadrlarni, xususan, jangovar harakatlarni to'g'ri rejalashtirish, harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni muntazam saqlab turishga qodir bo'lgan malakali ofitserlarni tayyorlash hisoblanadi. Ushbu vazifalarni samarali hal etishda esa oliy harbiy ta'lim muassasalari alohida o'rin tutadi.



Joriy yilda ana shunday ta'lim muassasalarini tamomlagan yosh ofitserlar Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli o'quv markazida chegara xizmatiga tayyorlash va o'rgatish bo'yicha tashkil etilgan bir oylik o'quv yig'ini ishtirok etdi.

Ularning soha yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida DXX Chegara qo'shinlarining tajribali ofitserlari tomonidan "Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatning o'ziga xosligi va O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga tahdidlar", "O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidagi vaziyat va zamonaviy sharoitda uning rivojlanish tendensiyalari", "Ofitserning jamoadagi obro'-e'tibori –

bo'linmani samarali boshqarishning muhim omili", "Bo'linmalarda jangovar tayyorgarlikni rejalashtirish va tashkillashtirish" kabi mavzularda nazariy hamda amaliy-ko'rgazmali o'quv mashg'ulotlari tashkil etilib, mazkur jarayonda yosh kadrlarning xizmatga tez va oson moslashuviga ko'maklashish, nazariy bilimlarini amaliyotga dadil tatbiq eta olishlariga erishish, shuningdek dunyo va mintaqamizda ro'y berayotgan harbiy mojarolar hamda zamonaviy jang amaliyotlarini tahlil etish orqali ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

– Harbiy soha tarixidan ma'lumki, barcha zamonlarda ofitser kadrlar qo'shinlarning asosiy tayanch bo'g'ini bo'lib kelgan. Xizmat

jarayonida ularning zimmasiga jiddiy va mas'uliyatli vazifalar yuklangani bois ofitserlar har tomonlama barkamol, qat'iyatli, izlanuvchan va tashabbuskor bo'lishlari zarur, – deydi polkovnik Odil Muhamedov. – O'tkazilgan o'quv yig'ini davomida izdoshlarimizning zukukligi, mashg'ulotlarni diqqat bilan tinglab, yaxshi o'zlashtirishga intilgani bizni quvontirdi. Uzoq va qisqa masofaga yugurish, turnikda tortilish kabi sinovlarni qabul qilish orqali biz ularning aqliy salohiyati bilan birga, jismoniy tayyorgarligini baholash imkoniga ega bo'ldik va ko'rsatilgan natijalarni yanada yaxshilashlari uchun mutaxassislar tomonidan tegishli tavsiyalar berildi.

Yosh ofitserlar DXX Chegara qo'shinlari rahbariyati ishtirokida tashkil etilgan suhbat davomida soha yuzasidan o'zlari uchun ko'plab yangi ma'lumot va tushunchalarga ega bo'ldi.

O'quv yig'ini qatnashchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun o'tkazilgan arqon tortish, mini-futbol, shaxmat va stol tennisi kabi musobaqalar samimiy va do'stona ruhda o'tdi.

Rejadagi barcha tadbirlar yakuniga yetgach, ishtirokchilarning egallagan bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida ulardan Umumharbiy nizomlar, Chegara qo'shinlari xizmati va taktikasi, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-huquqiy hamda otish tayyorgarligi bo'yicha test sinovlari qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, o'tkazilayotgan bu kabi keng qamrovli o'quv yig'inlari davomida yosh ofitserlar sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash ishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va egallagan bilimlarini kelgusidagi xizmat faoliyatlarida keng qo'llay olish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



MAYDONDA TAJRIBALILAR BELLASHDI

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli dala-o'quv maydonlarining birida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kuch tuzilmalarining qo'shma qarori asosida harbiy xizmatchilar o'rtasida "Taktik o'qchi" musobaqasi o'tkazildi.

Qo'shinlar hamkorligida o'tkazilgan "Taktik o'qchi" musobaqasida Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari va Milliy gvardiya qo'shinlaridan saralab olingan ishtirokchilar 4 bosqichli, ya'ni kvalifikatsiya, yakkalik, jangovar juftlik va jangovar to'rtlik hamda duel mashqi bahslarida mahoratlarini sinovdan o'tkazdi. Ahamiyatlisi, har bir bosqichdan o'ziga xos shartlar o'rin olgan bo'lib, bunda yurt posbonlarining mutaxassislari bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalari amalda sinovdan o'tdi.

Musobaqaning har bir sharti yangi yondashuvlar asosida tashkil etilib, bunda harbiy xizmatchilarga turli

yuklamalar berish orqali ularning tezkorlik, chidamlilik va merganlik sifatleri sinovdan o'tkazildi. Bir necha kilometrlik masofani bosib o'tgan o'g'lonlar turli tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tish mashqlari orqali chidamlilik ko'nikmalarini hamda jamoaviy jipslikni mustahkamladi.

Do'stona ruhda kechgan musobaqa harbiy xizmatchilar uchun chinakam tajriba va mahorat almashish maydoni vazifasini o'tadi.

Albatta, har bir musobaqaning yakuni, ya'ni



Muallif suratga olgan

g'oliblarni aniqlash fursati bo'ladi. Yetti kun davom etgan "Taktik o'qchi" musobaqasida ko'rsatilgan natija, erishilgan yutuqlar sarhisob qilinib, g'oliblar nomi e'lon qilindi. Unga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi harbiy xizmatchilari uchinchi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari ikkinchi, Mudofaa vazirligi harbiylari esa faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Musobaqaning yopilish marosimida g'olib va sovrindorlar kubok, diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Sherzod
EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"**



Turkiston Demokratik Respublikasi va Turkiston armiyasi

Inglizlarning Markaziy Osiyoga tarixdagi yagona bosqini



Buyuk Britaniya imperiyasi butun dunyo tarixidagi eng katta imperiya hisoblanadi. Ushbu metropoliya barcha qit'alarda mustamlakalarga ega bo'lgan va Rossiya bilan Markaziy Osiyo uchun ham kurash olib borgan. Garchi dastlab bu kurashda Rossiyaga yon bergan bo'lsa-da, inglizlar keyinchalik baribir Markaziy Osiyoni egallashga harakat qildi. 1918–1919-yillarda Ashxobodni qo'lga olgan Britaniya askarlari mahalliy aholi va oq gvardiyachilarga Turkistonda Sovet hokimiyatini qulatishga bevosita yordam bergan hamda o'lkada o'z hukmronligini o'rnatishga uringan.

1918-YIL. TURKISTONDAGI VAZIYAT

1918-yilning fevralida Turkiston muxtoriyati qulatilgach, mintaqada Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli (istiqlolchilar harakati) kurash boshlanadi. Toshkentni Moskva bilan bog'lovchi Orenburg shahri va uning atroflari Dutov boshchiligidagi oq gvardiyachilar tomonidan egallangach, Toshkentdagi Sovet hokimiyati markaz

ta'minotisiz qoladi va istiqolchilar bilan kurash olib borishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Sovetlar Germaniya bilan Brest tinchlik shartnomasini imzolagan bo'lsa-da, nemislar va ularning ittifoqchisi bo'lgan Usmonlilar sobiq Rossiya imperiyasining hududlarini o'ziga qo'shib olish niyatidan butunlay voz kechmaydi. Xususan, Usmonlilar "Sharq" harbiy guruhini tuzib, 20 mingdan ko'proq qo'shin to'playdi. Ushbu bo'linmaning bosh maqsadi Ozarbayjon, Dog'iston, Shimoliy Kavkaz hududlarini Usmonlilarga qo'shib olish bo'lgan. 1918-yilda turklar allaqachon Kavkazda faol harbiy harakat olib borayotgandi.

Britaniya nemis-Usmonli kuchlari Kavkazni qo'lga olsa, ular uchun Turkistonga yo'l ochilishidan xavotirda edi. Chunki bu paytda Turkistonda 60 ming atrofida nemis, turk, avstro-venger asirlari saqlanayotgan, mintaqada Usmonli kuchlari tomonidan zabt etilsa, ular tezda qurollantirilib, jiddiy kuchga aylanishi mumkin edi. Bu jiddiy kuch esa Buyuk Britaniyaning eng asosiy mustamlakasi – Hindiston va Eron uchun to'g'ridan to'g'ri tahdid tug'dirardi.

Qolaversa, dunyo paxta bozoridan uzilib qolgan Germaniya va Usmoniylar uchun Turkiston xomashyo bazasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan shu sabablar va kommunizmning dunyo bo'ylab tarqalishi xavfi tufayli London sobiq ittifoqchisi hududiga bostirib kirishga qaror qiladi.

TURKISTONGA ILK VA YAGONA BOSQIN

1918-yilning yanvar oyida inglizlar turklarning Kaspiy dengizi tomon yo'lini yopish uchun general Lionel Denstervil boshchiligidagi maxsus bo'linma tuzadi va uni Kavkazga yuboradi. Ushbu guruhning vazifasi Kaspiy janubida mustahkamlanish, so'ngra asosiy port-shahar bo'lgan Enzeli va Bokuni qo'lga olish edi.

London Denstervil missiyasining ehtimoliy muvaffaqiyatsizligini ham hisobga oladi va ikkinchi chiziq sifatida Kaspiyorti viloyatini (hozirgi Turkmaniston hududlari) egallashni rejalashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun asosan hindlardan iborat britan-hind alohida bo'linmasi tuziladi va unga general-mayor Uilfrid

Malleson qo'mondon etib tayinlanadi. Malleson bunga qadar Turkiston, Afg'oniston va Erondagi Britaniya razvedka xizmatini boshqargan, shu bois o'lka ahvolidan yaxshi xabardor bo'lgan tajribali zobit edi.

U 1918-yilning iyun oyida o'z bo'linmasi bilan Eron shimoliga yetib keladi va Sovet Turkistoni bilan chegaradosh Mashhad shahriga joylashadi. London Malleson zimmasiga "Usmonli–Germaniya bosqiniga mahalliy qarshilikni tashkil etish", "Markaziy Osiyo temir yo'li xavfsizligini ta'minlash", "Kaspiy dengizi nazoratini qo'lga olish", "dushman agentlarini ushlash", "dushman propagandasiga qarshi turish" kabi vazifalarni yuklaydi.

Bu paytda 1918-yilning 11-12-iyul kunlari Kaspiyorti viloyatida bolsheviklarga qarshi eserlar va mensheviklar boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi hamda mintaqadagi Sovet hokimiyati tugatiladi. Kaspiyorti muvaqqat hukumati tuzilib, uning tarkibiga eserlar, mensheviklar, dashnoqlar va turkman xonlari kiradi. 28-iyul Chorjo'y yaqinidagi jangda Kaspiyorti hukumati qo'shini qizil armiyadan mag'lubiyatga uchraydi va hukumat mavjudligi xavf ostida qoladi. Vaziyatga Buyuk Britaniya qo'shinlari aralashadi.

Avgust oyining boshida Markaziy Osiyo o'lkasiga birinchi marta ingliz askarlari oyoq qo'yadi. Britaniya kuchlari tez fursatda Ashxobod va Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi)ni egallaydi hamda Kaspiyorti temir yo'lining asosiy qismini o'z nazoratiga oladi. Ashxobodda joylashgan ingliz qo'shinlariga Redjinald Tig-Jonson boshchilik qiladi. Malleson faqatgina dekabr oyida Ashxobodga keladi.

13-avgust kuni inglizlar Markaziy Osiyoda ilk bor qizil armiya bilan bevosita jangda qatnashadi. Bayramali temiryo'l stansiyasi yonida bo'lib o'tgan ushbu to'qnashuvda Britaniya kuchlariga tayangan Kaspiyorti muvaqqat hukumati sovetlar hujumini qaytarib, stansiyaning o'z nazoratida ushlab qoladi.

Bolsheviklar avgust oyi oxiriga qadar Kaspiyorti muvaqqat hukumatiga yana to'rt marta hujum qiladi. Biroq ularning bari inglizlar aralashuvi sabab muvaffaqiyatsiz tugaydi.

TURKISTON DEMOKRATIK RESPUBLIKASI VA TURKISTON ARMIYASI

Inglizlar butun Markaziy Osiyo mintaqasini bosib olish niyatidan uzoq edi. Ular bu yerda bolsheviklarga qarshi front yaratib, Britaniya ta'sir doirasida bo'lgan yangi davlat tuzishni rejalashtirgandi. Bu yo'lda ular oq gvardiyachilar, Xiva xonligi, Buxoro amirligi, istiqolchilar bilan muzokaralar olib bordi va ularni dastaklashga harakat qildi.

Xususan, o'lkada sovetlarga qarshi kuchlar bilan kelishuvlar o'tkazish va o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish uchun avgust oyi o'rtalarida Toshkentga Frederik Beyli boshchiligidagi maxsus delegatsiya yuboriladi. Delegatsiya Toshkentga Sharqiy Turkiston orqali keladi va ularga Britaniyaning Qoshg'ardagi konsuli Jorj Makkarti ham qo'shiladi. Bundan tashqari, bu vaqtda Toshkentga AQSh bosh konsuli Traduell ham tashrif buyuradi.

Bir necha hafta davomida Toshkentda bo'lib turgan inglizlar "Sho'royi Ulamo" va istiqolchilar bilan uchrashuvlar o'tkazgani haqida taxminlar mavjud. Bu versiyani sovetlar ilgari surgan. Sovet tarixchilari Beyli delegatsiyasi istiqolchilarga qurol-yarog' va pul yordami va'da qilganini yozadi.

Kaspiyortida inglizlar bilan to'g'ridan to'g'ri janglar yuz bergach, "Chk" agentlari Beylini uy qamog'iga oladi. Keyinroq qo'yib yuborilgan Beyli, bolsheviklar uni yana qamoqqa olmoqchi ekanidan xabar topadi va Buxoro orqali Kaspiyortiga qochib ketadi.

Britaniya ma'murlari istiqolchilardan tashqari, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ham o'z yordamini taklif qiladi. Malleson Junaiddon va amir Olimxon orqali o'lkadagi bolsheviklar hukmronligiga barham berib, bu yerda Turkiston Demokratik Respublikasini tuzmoqchi edi. Bu respublika Buyuk Britaniya bilan yaqin aloqalarga ega bo'lishi hamda London ta'sir doirasiga tushishi lozim edi. Biroq inglizlar bu rejani amalga oshirishga vaqt va imkoniyat yetmaydi. 1918-yil 9-oktabrda Britaniya kuchlari Kaspiyorti muvaqqat hukumati qo'shinlari bilan birgalikda Dushoq (Tushuv) temiryo'l stansiyasiga hujum qiladi. Juda og'ir janglardan so'ng Sovet garnizoni mag'lub etiladi. Ammo ushbu muhorabadan so'ng qurbonlar ko'p berilgan bois Malleson ingliz askarlarini ortga qaytaradi va ularga sovetlar bilan to'g'ridan to'g'ri jangga kirishni taqiqlaydi.

INGLIZLARNING TURKISTONNI TARK ETISHI

1918-yilning oktabr-noyabr oylarida Usmonli imperiyasi va Germaniya birin-ketin ittifoqchilarga taslim bo'ldi. Usmonli qo'shinlari Kavkazdan to'liq olib chiqiladi. Shu tariqa Markaziy Osiyoga nemis-Usmonli kuchlari bosqini xavfi butunlay yo'qoladi.

Birinchi jahon urushining yakunlanishi ingliz qo'shinlarining Kaspiyortida bo'lishini savol ostiga qo'yadi. Birinchi jahon urushining bir qismi hisoblangan ushbu amaliyot endilikda Sovet Turkistoniga ochiq intervensiya sifatida baholanardi.

1918-yil dekabr oyida Ashxobodga kelgan Malleson Kaspiyorti muvaqqat hukumatining sovetlarga qarshi tura olish qobiliyatiga shubha bildiradi. 1919-yil 1-yanvarda Ashxobodda yangi "Jamoat najot qo'mitasi" tuziladi. Inglizlar yordami bilan Kaspiyortiga oq gvardiyachi general Anton Denikin diviziyalari kirib keladi. 9-yanvarda Denikin bo'linmalari, mensheviklar va mahalliy kuchlardan iborat "Turkiston armiyasi" tashkil etiladi. Malleson boshliq Britaniya zobitlari sovetlarga qarshi kurashda aynan ushbu armiyani qo'llab-quvvatlaydi.

1919-yilning bahorida Hindiston va Afg'onistonda inglizlarga qarshi milliy ozodlik harakati avj oladi. Natijada Uilfrid Malleson London topshirig'i bilan Kaspiyortidan Britaniya qo'shinlarini olib chiqishni boshlaydi. Oxirgi ingliz bo'linmasi 1-aprelda chegarani kesib o'tadi. Ularning o'mini Denikinining Turkiston armiyasi egallaydi.

1919-yilning may oyida uchinchi ingliz-afg'on urushi boshlanadi. Shu bilan bu mintaqadagi Britaniya Qurolli Kuchlarining asosiy e'tibori Afg'onistonga qaratiladi.

Ingliz garnizoni 1919-yilning avgustiga qadar Krasnovodskda qoladi. Chunki Britaniya Kavkazda hali faol harbiy harakatlar olib borayotgandi. Krasnovodskdagi garnizon esa inglizlarga Kaspiy dengizni to'liq nazorat qilishga imkon bergan. Aynan ushbu suv yo'li orqali oq gvardiyachilar va boshqa sovetlarga qarshi kuchlarga qurol-yarog' yetkazib berilgan.

Lekin 1919-yildan Britaniya qo'shinlarining umumiy chekinishi ortidan Krasnovodskdagi ingliz bo'linmasi ham shaharni tark etadi. 1919-yilning avgust oyi oxirida ingliz diviziyasi Krasnovodskdan chiqishi bilan Britaniyaning Markaziy Osiyoga yagona bosqini yakun topadi.

Inglizlarning Turkistonda paydo bo'lishi, shubhasiz, oqibatlargacha qolmadi. Aynan ushbu yurishdan keyin sovetlar Buxoro va Xiva davlatlari Britaniya bilan yaqin hamkorlik qilishidan ko'proq xavfsirashni boshladi hamda ularni to'liq tugatishga qaror qildi. Inglizlarning Kaspiy mintaqasida faollashuvi sovetlarni bir muddat mahalliy aholi bilan murosaga borishga ham majbur qildi.

Muhammadqodir SOBIROV
(oyina.uz)

Ijod

va

kurash

O'ylasak, ikkovining ham o'z maydoni bor: ijod maydoni, kurash maydoni. Garchi ular shaklan boshqa-boshqa bo'lsa-da, ammo mohiyatan bir-biriga uyyqash. Bilsangiz, to'y-hashamda maydonga tushgan polvonning o'rtaiga tikilgan vajdan umidi bo'lmaydi. Olishsa, oriyat deb olishadi. Ijodkor uchun esa yozuv stoli, stul, lampa, qalam va qog'ozdan qadrdoni yo'q. Demak, bu maydon ichra so'zi halol ijodkor bilan o'zi halol polvonning kuragi yer ko'rmagay. Tog'ay Murod ana shunday adib o'tdi, Sayfiddin Hodiyeve ana shunday polvon o'tdi...

* * *

1975-yil 11-sentabr. Toshkent. "Salom" choyxonasi. Bunda yig'ilayotgan qashqadaryoliklar sevinchi ichiga sig'mas, chunki o'sha yili kitoblik Sayfiddin Hodiyeve sambo bo'yicha Minsk shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida birinchi o'rinni egallab qaytgandi. Tabriklash uchun choyxonaga oshiqib kelganlar ko'p bo'ldi. Ular kim bo'ldi: yaqinlar, polvonlar bo'ldi. Ularning ichida notanish bir odam to'g'ri kelib, polvonni quchoqlab oldi. Chempion o'zidan ham baquvvat, alpomishkelbat bu odamni tanimas, u esa quchog'idan qo'ymay, negadir ko'zlarida yosh bilan nuqul bir gapni takrorlardi:

– Rahmat, polvon! Rahmat sizga. Otangizga ming rahmat!

Bu odam Tog'ay Murod edi. Polvonni izlab borgandi. Bir muddat ikkala maydon qo'shilib, keng bo'ldi. Maydonda ularga bas kelari bo'lmadi. Ko'rmaysizmi, polvonning so'zlari adibona bo'ldi, adibning so'zlari polvonday bo'ldi:

– Sayfiddin, bilasizmi, kurash ajdodlarimiz – xalqimiz qoniga singib ketgan. Xalqimizning qoni toza, ildizi baquvvat. Bu narsa avloddan avlodga irsiyat orqali o'tib kelyapti. Bizning kurashchilarimiz polvonlik maktabida o'qimasa ham, maxsus joylarda tayyorgarlik ko'rmasa ham, ularning o'zi shunday tayyor kurashchi-ku! Polvonlik bizga otameros, pushtdan pushtga, qondan qonga o'tib kelyapti. Polvonlikning ko'zga ko'rinmas, til bilan tushuntirib bo'lmaz shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlarga biladi. Bu sirlar hech bir kitobda yo'q! Eng mashhur kurashchilarimiz ham gilamlarda kurashmasdan, qishloqlarda bo'ladigan

to'ylarda, katta-kichik davralarda kurashib ulg'aygan, suyagi qotgan. Bizning kurashimiz boshqa yurt kurashlaridan nimasi bilan farq qiladi?

Bizning kurashda erkakman degani tik turgan odam bilan olishadi! Ha, yerda yotgan odamga qo'l ko'tarmaydi! Markaziy Osiyoda, xususan bizning yurtimizda uzum, paxta kabi ekinlar azaldan ko'p ekiladi. Ularga tik turgan holatda ishlov beriladi, terib olinadi. Ya'ni harakat tepada bo'ladi. Boshqa joylarda esa, masalan, Rossiya tomonlarda paxta ekilmaydi-ku! U yerlarda ko'proq kartoshkaga o'xshagan ekinlar ko'p ekiladi. Unga esa egilgan holatda, yerlashib-yerlashib ishlov beriladi. Bizning kurashchilar tepada, tik turgan holatda bajariladigan amallarga ko'proq moslashgan. Chunki aksariyat polvonlarimiz yoshligidanoq paxta dalalarida yer bilan salom-alik qilib, suyagi qotadi. Boshqa kurashchilar bilan biznikilar kurashi orasidagi farq ana shunda!

Ikki soatcha davom etgan suhbat Sayfiddin Hodiyevevning butun hayotiga singishib ketdi. Ko'p o'tmay "Sharq yulduzi" jurnali o'z sahifalarida "Yulduzlar mangu yonadi" asarini e'lon qildi. Unda polvonning ham nomi tilga olingandi. Kitobxon asarning o'sha sahifasini bir nafasda o'qiydi. Shundayam polvonni bilganlar o'tgan xotiralarni ko'nglidan o'tkazib o'qiydi, bilmaganlar to'qimaga yo'yadi.

Keling, o'shanda adibni yozuv stolidan "tortib olib" choyxonaga yetaklagan hikmatni asarning o'zidan o'qiydiz:

– Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyeve bor-ku, yaqinda o'sha bilan o'tirib qoldim. Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim, deb suyunadi, bilmaydilarki, men bolaligimdan to'ylarda olishib yurgan tayyor polvon edim, deydi.

– Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo'ldi-ya.

– Ha-da, Mo'g'ulistonda qanday qilib jahon chempioni bo'lganini gapirib berdi. Olish vaqti tugashiga bir necha sekund qolganda yonboshga olib urib, ochko oldim, deydi. Bunday hunar boshqa biror olishda yo'q, faqat bizning olishimizda bor, deydi. – Ota-bovamiizning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo'r polvoni biz bo'lamiz-ku-ya, nima dedingiz... ("Yulduzlar mangu yonadi", 1976-yil. 45-b.)

Aytganimizdek, bir nafaslik dialog. Ammo ana shu bir nafas baxt ataldi. "Men qaytib kelaman" (Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida) kitobida polvonning o'zi bunday deydi: "Tog'ay aka "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida meni ham tilga oldi. Bu narsa menga katta ta'sir qilgan, ruhlanib ketganman. Axir chekka bir qishloqdan chiqqan, to'ylarda kurashib katta bo'lgan menday oddiy polvonni Tog'ay Murodde katta yozuvchi o'z asarida aytib o'tishi katta baxt emasmi? Shu asar orqali ham nomimni butun el bildi. Bundan keyin ham biladi".

Xullas, asar "yonbosh" ham bo'lmadi, "chala" ham. Halol bo'ldi. Kitob chin ma'noda pahlavonlik yo'riqnomasi, yigitman degan uchun g'urur bo'ldi. Sayfiddin Hodiyeve uchun misoli iqrar bo'ldi: "...Kim biladi, Tog'ay aka bo'lmaganda men bu qadar katta polvon bo'lmasmidim? Chunki men kurashning oltin qoidalarini Tog'ay Muroddan o'rgandim! U kishi aytgan "Polvon o'zini uch balodan: birinchisi – ayolbozlik, ikkinchisi – ichkilikbozlik, uchinchisi – nafs balosidan asrasin", degan hikmatiga men ham amal qildim..."

O'sha kezlari yana bir ijodkor – ukrainalik Yan Dimov dunyoning eng mashhur kurashchilari haqida "Pahlavonlar do'stlik tufayli ham kuchlidirlar" kitobini yozdi. Ushbu kitob o'zimizda qayta-qayta nashr etilgan va

payti bo'lganki, 150 ming nusxada bosmadan chiqqan. Polvonlarni obdan kuzatar ekan, muallif ular haqida yozmoq uchun minglab kilometrlarni bosib o'tishdan ham toymadi. Kunlarning birida u Qashqadaryoga keldi-da, Sayfiddin Hodiyevevni qidirib topdi. Ikkov do'st tutindi. Yan Dimov shunday pahlavonni ulg'aytgan elning to'yida ham bo'ldi, ma'rakasida ham.

...Yozuv stoli, qadrdon stul, lampa va mashinka. Ijodkor maydonga chiqdi:

"Sportda kimga qiyin, vazn bilan tushuvchilarga! Va ayniqsa, vazn tashlovchilarga! Vazn – eng ashaddiy raqib.

Ba'zan bunaqasi ham bo'ladi: kuniga kam deganda bir soat hammom bug'xonasida o'tirib, tag'in kunduz kunlari bir stakandan ziyod suv ichmaslikka ahd qilgan vazn tashlovchi sportchi kechasi uyqusidan turib, suv jo'mragi yoniga keladi va ichadi. Ertalab taroziga oyog'ini bosadi-da, oh, deb yuboradi – qayerdan paydo bo'ldi buncha og'irlik?! U dabdurstdan qachon suv ichganini eslolmaydi. Bilmaydiki, tushi aralash ichib qo'ygandi suvni.

Shunday hodisa ro'y bermasligi uchun Mels An do'sti Sayfiddin Hodiyeve bilan kechqurun kelib, mehmonxona nomeridagi kran jo'mragini qattiq berkitib qo'ydi. Ertalab ular ikkovlashib ham kranni ocha olmadi. Komandadagi eng kuchli va og'ir vaznli Vitaliy Kuznetsoveni chaqirishdi. U ham uddalay olmadi. Oxiri slesarni chaqirib, maxsus ochqichda bo'shatishga to'g'ri keldi, u ham taajjubda edi: "Qanday qilib bunaqa mustahkamlanib qolibdi-ya! Yap-yangi edi, hafta burun o'zim qo'rgan edim!.." Bu ikki marta jahon chempioni Sayfiddin Hodiyeve hayotidan oddiy bir lavha xolos. Bunaqasi juda ko'p bo'lardi. Hammasi alamdand, achchiq alamdand boshlangandi..."

O'shanda kaltaqaqayligi uchun hamqishloqlari uning yelkasiga shapatlab: "Obbo, Saypicha, senam kurashmoqchimisani?" demish so'zlar matbuotda chiqdi. Sayfiddin Hodiyeve o'g'il bo'lib otasiga rahmat keltirguncha ozmuncha yo'l bosdimi?! Axir chempionlik osmondan yog'ilib tushmaydi-ku!

Bilsangiz, alamning zo'ri polvonda bo'ladi. Oriyatning zo'ri-da unda bo'ladi. Bir gal qo'shni qishloqlik qizilmag'iz, g'o'labir yigit surunkasiga to'rttasini chirpirak qilib yiqitganida Hodi polvonning-da qoni jo'shdi. Tengqurlari davrasida o'tirgan o'g'luga yaqinlashib: "Tushasanmi?" deya maydonga ishora qildi.

– Yiqilsam, yer ko'tarar, – dedi-yu, o'g'il o'rnidand qo'zg'aldi.

– Yiqilsang, men ko'tarmayman, shuni bilib qo'y. Meni uyatga qo'ymassan?

Sayfiddinning qoni qaynadi, oriyati keldi. Qo'l silkiib, o'rtaiga tushdi. Uchinchi marta raqibi bilan bel ushlashib, otasidan o'rgangan "tepki chil" usulini qo'lladi. "Gup" etib yiqilgan raqibini mahkam bosib olganida esa tomoshabinlar qiyqirib yubordi. Hodi polvon yugurib kelib o'g'lini dast ko'tarib oldi-da, davra aylantirdi. Polvonlik qonida bor-da!

* * *

Ijod va Kurash.

O'ylasak, ikkovining ham o'z maydoni bor. Shaklan boshqa-boshqa, mohiyatan uyyqash. Ko'ring, ikkalovida ham raqibga o'zining kim ekanini ko'rsatib qo'ymoq bor. "Mana, men kimman!" demoq bor.

Tog'ay Murod ana shunday adib o'tdi. Sayfiddin Hodiyeve ana shunday polvon o'tdi...

Akmal JUMAMURODOV

Qurollarning turkiycha nomlari



qanday bo'lgan?

O'q-dori – poroxning Xitoyda kashf etilishi sekin-asta o'qotar qurollar erasini boshlab berdi.

Amir Temur davrida manjaniq, ra'dandoz, naftandoz kabi tosh va olovotar qurollardan foydalanilgani ma'lum, ammo miltiq yoki tufak Temur o'rdusida bo'lmagan. "Boburnoma"da esa biz tufak, tufang, miltiq, to'p, qazon, ulug' qazon, zarbzan, farangiy kabi ko'plab o'qotar qurollar nomlarini uchratamiz. Demak, Bobur o'z o'rdusini zamonasining eng ilg'or qurollari bilan qurollantirishga harakat qilgan. Bu davrga kelib Usmonli davlati, Safaviylar Eronida ham o'qotar qurollar bor edi. Eron va Usmonli davlatida foydalanilgan Ovro'po rusumidagi to'plarni Bobur "farangiy" deb ataydi.

"Boburnoma"da o'sha davr artilleriyasi – to'plar, o'qotar qurollar bo'yicha mutaxassis bo'lgan ikki shaxs nomi tilga olinadi. Ulardan biri – Ustod Aliquli, ma'dandan qazon, ya'ni to'p (*zambarak*) quyuvchi usta, ikkinchisi – Mustafo Rumi, u "Rum dasturi bila aroba", ya'ni Ovro'pocha usulda to'p tagiga o'rnatiladigan g'ildirakli arava va farangiy – Ovro'po rusumidagi to'plarni yasash bo'yicha mutaxassis. Ana shu ikki mutaxassis boshchiligidagi Bobur o'rdusida to'pchi va miltiqchilardan iborat maxsus guruh bor edi.

"Boburnoma"ning 1508-yil voqealari hikoya qilingan bobi hozirgi Pokiston hududida bo'lgan Bajavr qo'rg'onining ishg'ol etilish voqeasi bilan boshlanadi. Boburning yozishicha, bajavrliklar o'sha paytgacha miltiq nimaligini bilmagan: "Bajavr eli, chun tufangni ko'rmaydur edilar, tufang unidin hech parvoye qilmadilar, balki tufang unini eshitgach, tamasxur qilib, muqobolada shani' harakatlar qilurlar edi. O'shal kuni Ustod Aliquli besh kishini tufang bila yiqdi". Buni qarangki, miltiq ovozi eshitmagan bajavrliklar bu qurolga parvo ham qilmabdi, hattoki oldinga chiqib, masxaralab turli qiliqlar ham qilibdi, oqibatda bir qanchasi o'qqa o'chib nobud bo'libdi.

Umuman, Hindiston fathida Bobur o'qotar qurollar, artilleriyadan ham unumli foydalangan. Agar Rossiya tarixi bilan solishtirsak, Bobur o'rdusidagi bu to'pchi va tufakchilar – Moskva davlati podshosi Yovuz Ivan (*Грозный*)ning O'qchi qo'shinlarini (*стрелецкое войско*) eslatadi. Faqat Yovuz Ivan Boburdan yarim asr keyin – 1550-yilgi harbiy islohotlarida maxsus o'qchilardan iborat qo'shinlar (*стрелецкое войско*) tashkil etishga qaror qiladi. 1552-yili esa ana shu qo'shinlar yordamida Qozon ishg'ol etilgan.

Tufak yoki miltiq tasvirlarini "Boburnoma" qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralarda ham ko'rish mumkin. Tufaklar Boburning o'z mutaxassislari tomonidan yasalganmi yoki sotib olinganmi, bu haqda "Boburnoma"da ma'lumot yo'q. Ammo bir o'rinda: "cherik yarog'iga va to'p va tufakchining doru va jidog'iga (*maoshiga*)" xazinadan mablag' ajratish haqida farmon bo'lgani aytiladi. "Doru" deganda bu yerda "porox" ko'zda tutilmoqda.

Xo'sh, "tufak" va "miltiq" so'zlari qanday lug'aviy ma'noga ega?

Hozirgi o'zbek tilida "tufak" so'zi qo'llanilmaydi. "Boburnoma"da esa "miltiq", "tufak" va "tufang" – ma'nodosh so'zlar sifatida ishlatilgan. Ammo fors-tojik, ozarbayjon tillarida "tufang", usmonli turkchasida "tüfek" – "miltiq" ma'nosida hozir ham iste'molda. "Tufak" rus manbalarida ham "tyufyak" shaklida uchraydi. Rus yilnomalaridagi "tyufyak" haqidagi ilk qayd

XIV asrga oid bo'lib, qizig'i shundaki, 1382-yili moskvaliklar To'xtamish hujumini qaytarish uchun tufakdan ham foydalangan ekan. Rus tarixchilariga ko'ra, tufak Moskva knyazligiga turkiy xalqlar (*tatarlar*) orqali o'tgan bo'lishi mumkin.

M. Fasmerning "Rus tilining etimologik lug'ati"da "tyufyak" chig'atoycha (*eski o'zbek tilida*) ekani aytiladi.

"Boburnoma"da podshoh Boburning ikki farmoni fors tilida keltirilgan. Boburning vazirlari tomonidan yozilgan mazkur forscha matnlarda ham: "tufakchilar" ma'nosida "tufakchiyon", ba'zan "tufakandoz" deb yozilganini ko'rish mumkin. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da "tufak" so'zini ot egar-jabdug'i qismlaridan biri sifatida tilga olgan.

"Tufak" so'zi "Devonu lug'oti-t-turk"da shunday izohlangan: "تُفَافْ tūwāk – tuppak. Tol daraxtining va umuman, ho'l shoxlarning po'stlog'ini yormay, shox, novdadan sug'urib olinadi va uchiga g'o'lakchalar qo'yib, chumchuqlar otiladi. Yog'ochning ichini kovak qilib ham tuppak yasaladi (*chigillar lug'ati*)". "Tuppak" so'zi 1981-yili chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham: "loy soqqani puflab qush otish uchun maxsus tayyorlangan qamish nay", deb izohlangan. Bu so'z "tuflamoq" fe'lidan yasalgani ham anglashiladi. Puflab otiladigan bu turdagi ibtidoiy pnevmatik qurol Amerika hindularida ham borligi turkiy xalqlarda tufak azaldan mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Xullas, miltiq tilimizda dastlab "tufak" deb atalgan edi. Keyinchalik u fors va boshqa tillarga "tufang" shaklida o'tgan. Pistolet yaratilgandan keyin esa bu qurol "kalta miltiq" ma'nosida turk va fors tillarida "to'pponcha", "tufangcha", "tubangcha" qabilida atala boshlagan.

"To'p" (*zambarak*) so'zi ham shaklan "tufak" yoki "tuppak"ka o'xshasa-da, etimologik jihatdan "koptok" ma'nosidagi "to'p" so'ziga borib taqaladi. Bu qurolning o'qi – dumaloq tosh, to'p shaklida bo'lgani uchun shunday atalgan. "Devonu lug'oti-t-turk"da: "توپ top – to'p, koptok. Bu so'z topiqlarning qisqarganidir", deb izohlangan. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" asari muallifi Sh. Rahmatullayev esa: "Aslida "top" so'zi qadimgi turkiy tilda mustaqil ishlatilgan va "dumaloq narsa" ma'nosini anglatgan", deb yozadi. Ya'ni to'p – qadim zamonlardan qal'a-qo'rg'onlarni zabt etish uchun qo'llanilgan manjaniq oilasiga mansub qurol. "Boburnoma"da to'p (*zambarak*), ko'pincha "qazon", katta to'p – "ulug' qazon" nomlari bilan tilga olinadi. Bunday atalishining sababi to'p ham qozonday maxsus qolipga yuqori darajali issiqlikda eritilgan ma'dan quyilib yasalgan.

"Miltiq" so'zini esa ko'pchilik mutaxassislar "pilta" va "o'q" (*pilta+o'q, piltali o'q*) so'zlaridan yasalgan deb hisoblaydi ("pilta", shuningdek forscha "fatila", ruscha "fitil" so'zlari aslida arabcha "fatil" (فَيْتِل) so'ziga borib taqaladi). O'tmishda piltali miltiqlar bo'lganini bilamiz.

Abduvohid HAYIT
(oyina.uz)



Dolzarb mavzu

Dunyodagi tadqiqot institutlarining ilmiy xulosalarida tojli virus chillasi (*pandemiyasi*) odamlarning ruhiy salomatligiga katta ziyon yetkazgani bot-bot ta'kidlanmoqda. 2020-yildan so'ng yurtimizda aholining, ayniqsa ayollarning ruhiyati, yaqinlari bilan munosabatida muammosi ko'paygan. Ruhiy buzilish, vahima va xavotirlar soni ortib, psixologlarga ehtiyoj kuchaygan. Inson shifo istab mutaxassisga murojaat qilsa-yu, davo topsa, nur ustiga nur. Ammo soxta mutaxassisga yo'liqib, ahvoli battar bo'lsa, bundan ortiq ko'rgilik yo'q.

Oxirgi paytlar O'zbekistonda soxta psixologlar ko'paygani xavotirli. Ularga uch yil burungi chilla va erkaklarga nisbatan ayollarning ruhiy yordamga moyilligi ko'proq qo'l kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini psixolog deb tanishtirayotgan fribgarlar minglab ayollarni osongina chuv tushiryapti. Psixologik yordam ko'rsatishni iddao qilayotgan shaxslarning aksariyati uquvsiz, tajribasiz, bilimsiz, zo'rg'a uch oylik kursni o'qib chiqqan. Soxta psixologlarning nayranglarini bilib qolgan odamlar "Bizga psixologiya kerakmi?" degan savolni ham o'rta tashlamoqda. Aslida psixologiya deganda nimani tushunish kerak? Keling, soha mutaxassislarning bu haqdagi fikrlarini o'rganamiz.

Nargiza SULTONOVA (30 yosh), hisobchi:

– Oilaviy muammolarim sababli internetda mashhur psixologning qabuliga yozildim. Avvaliga muammolarimni eshitdi, hammasida o'zimni aybladi. Sizni o'zgartiramiz, dedi. Er-xotin munosabatimiz chetda qolib, atrofimda bo'layotgan barcha dilxiraliklar, xotiralar tubida saqlanib yotgan ota-onam bilan aloqalarim, bolaligimdagi masalalar ko'tarilib ketdi. Xullas, hammasiga kelib chiqishim, genim va hokazolar aybdor emish. O'sha kuni yuragim og'rib, ruhan ezildim.

O'sha psixolog bilan uch dars ishlashim kerak edi. Ikki marta qabuliga bordim. Maslahatlarining ko'piga tushunmadim. Boshida taqdirga tan berib yashash haqida rosa uqtirdi. Keyin hammasini o'zgartirish o'z qo'limda ekanini tushuntirdi. Savol beray desam, "Meni eshitishni istamayapsiz, qarshi chiqyapsiz, shuning uchun ham muammolaringiz ko'payib ketgan, yana ko'payaveradi", deya og'zimga urdi. Indamay eshitib o'tirishdan boshqa ilojim qolmadi. Bir yarim soat vaqtini amallab o'tkazdim. Bir million to'rt yuz ming so'm to'ladim. Tag'in bu chegirmali narx ekan. Aslida odamlar qabuliga bir soatga bir million so'm to'lab kirarkan. Uchinchi darsiga borib o'tirmadim. Muammolarim o'zim bilan qolaverdi. Hozir pulim va vaqtim bekor ketganiga achinib o'tiribman.

Matluba TOSHEVA (64 yosh):

– Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" kitobidan bugungi kunda ko'p psixologlar foydalanadi, hatto iqtiboslar keltiradi. Shu kitobni qo'lingizga olib, bir marta e'tibor bilan o'qib chiqing, azizlar. Najotni psixologdan izlashga ehtiyoj qolmaydi. Chin musulmon kishida aslida psixologga ehtiyoj sezilmaydi. Hozir din ahkomlarini biladiganlar ko'p, amal qiladiganlar oz. Najot iymonda, sabr va qalb halovatida. Tushunaman, agar sizda qandaydir nasli yoki ruhiy kasallik bo'lsa, bu yordam bermaydi. Bunday hollarda psixiatr yoki psixoterapevtga murojaat qiling, ijtimoiy tarmoqlarda ulkan o'zgarishlarni va'da qilayotgan lo'ttibozlarga emas.

Zarifboy IBODULLAYEV, Toshkent tibbiyot akademiyasi professori, "Tibbiyot psixologiyasi" darsligi muallifi, tibbiy psixolog:

– Psixologiya o'ta murakkab va mas'uliyatli fan. Psixolog doimiy izlanishga majbur. Bugun asl psixolog bilan ezoterik, parapsixolog kabi tushunchalar qorishib ketdi. Buddizm, nasroniylik ta'limotlari asosiga qurilgan g'oyalar, veda madaniyati guruhlariga aqidalar ommaviy singdirila boshlandi. Unisidan bir chimdim, bunisidan bir chimdim olib, bo'tqa pishirib yotgan kishilar o'zlarini bexijolat psixolog deb atamoqda. Har xil mavzudagi ma'ruzalarini internetga joylab, auditoriyaga ta'sir o'tkazishga urinmoqda.

Hozirgi axborot asrida insonlarning informatsiyadan ta'sirlanishi juda yuqori. Ko'pchilik ko'rgan va eshitgan axboroti ta'sirida uzoq vaqt qarama-qarshi fikrlar girdobida qolib ketyapti. Bir fikrga kelolmay, boshi berk ko'chaga kirib qolmoqda. Inson ruhiyati juda nozik masala. Beqaror inson turli fikrlar girdobida qolib ketga, uni uyqusizlik, bezovtalik, vahima qurshab oladi. Hatto ayrim insonlar o'sha ma'ruzalarga bog'lanib, zombiga aylanib ulgurgan. Bora-bora ruhiyatni shunaqa yopishqoq g'oyalar va fikrlar o'rab oladi.

O'zbekistonda parapsixologiya, ezoterika, psixogenetika kabi yo'nalishlar juda ommalashib ketdi. Ijtimoiy tarmoqlarda bir nechta shunday guruhni kuzatish mumkin. Ularda pulga minnatdorlik bildirish, koinotga yuzlanish, quyosh, oy kabi osmon jismlaridan so'rash kabi maslahatlar berilmoqda. O'zi uch oylik kursda o'qib chiqqan-chiqmagani noma'lum "psixolog"lar xizmat ko'rsatish bilan birga shogird tayyorlash kurslarini boshlab yuborgan. Bu kurslarda har oyda o'ndan ortiq ayol "professional" bo'lib yetishayotgan ekan.

Ayniqsa, psixologiyada eng kamida fundamental bilimlar uchun universitetlarda professorlar to'rt yil davomida talabalarga ta'lim beradi. Islom diniga mos kelmaydigan turli nazariyalar, mashqlar, seanslar o'tkazish shunchalar oson ish bo'lib qoldiki, Instagram yoki Telegram kanallarida obunachi yig'ib olsa bo'ldi.

Dildora AMIRJONOVA, Toshkent tibbiyot akademiyasi doktoranti, tibbiy psixolog:

– Ko'pgina odamlar psixologlarga murojaat qilib, najot topmaganini aytadi. Ayrimlar ma'lum vaqt o'zgardim deb yurib, oradan bir yil o'tib-o'tmay, yana battar tushkunlikka tushib qoladi. Bu odamlar psixologlar yoki psixoterapevtlarga emas, balki soxta ezoteriklarga duch kelgan. Psixologiya inson ruhiy jarohatlari va xafagarchilikdan xalos bo'lishida yordam bersa, ezoterizm har qanday muammoga yechim topishni va'da qiladi.

Odatda bemorlar ichki dunyosini tahlil qilishni kutadi, biroq soxta ezoteriklar ularni butkul boshqa ko'chalarga kiritib yuboradi. Ko'pincha ezoterizm bo'yicha kitoblar va treninglar

Boyluk vasvasasi yoxud soxta psixologlar nayranglari



Hozir ko'pchilik psixolog deganda, "koinotga o'zidan qandaydir energiya yo'llash", "har kuni oynaga qarab, "men baxtliman", deb tinmay takrorlash, "pul bilan suhbatlashish" kabi tuturiqsiz maslahatlar beradigan mahmadonalarni ko'z oldiga keltiradi. Tabiiyki, bu dunyobexabarlik soxta psixologlarga qo'l keladi. Ular hech bir javobgarlik

psixologiya nomi ostida yashirinadi. Chunki inson ongida fan va tasavvur uyg'unligidagi formulalar tez ishonch qozonadi va yaxshi daromad keltiradi. Odamlar ilohiyot, mo'jiza kabi sirli bilimlarga bir tomondan qiziqsa, boshqa tomondan cho'chib turadi. Bu yerda ularga sirli jumboqlarni fan bilan bog'lab, muammolarni hal qilish taklif etiladi. Bu ongga ta'sir qilish, ishonch qozonishning samarali usulidir.

Soxta ezoteriklar insonning zaif tomonlarini qanday topishni yaxshi biladi. Sehrni o'rgatadi, hayotga fikrlar bilan ta'sir qilish, pulni jalb etish, tana quvvatini boshqarish kabilar haqida gapiradi. Munajjimlar bashorati, quyosh, oy, koinot va boshqa energiyalarga murojaat qiladi. Koinot qonunlariga rioya qilishni va tabiatga qaytishni so'raydi. O'tgan ajdodlar, ota-onalar ruhi bilan ishlaydi. Shu yo'l bilan o'zbek ayollarining soddaligidan foydalanib, pul topadi.

Bugun psixologiyaga otilayotgan toshlar va ishonchsizlik kayfiyatining asl sababi sohada nazorat yo'qligidir. Masalan, kardiolog shifokor deyilsa, universitetda ta'lim olgan, oliy ma'lumotli, diplomi, bilimi va malakasi bor mutaxassisi tushunamiz. Psixolog ham oliy ta'lim maskanida o'qishi, psixologiyaning asosiy ilmidan xabardor bo'lishi kerak.

Madina JO'RAYEVA, "Muslimaat. uz" sayti psixologi:

– Din arbobi ilmni yaxshi o'rganib, ma'lum bir ijozalarni qo'lga kiritgach, odamlarga shariatni o'rgatishi mumkin. Shu ma'noda psixolog ham avval insonning ruhiyatini yaxshi bilishi zarur. Ya'ni insonning ruhiy salomatligi va ruhiy buzilishlarini ilmiy jihatdan puxta o'rganmaguncha hech kimning psixologlikka da'vo qilishga haqqi yo'q. Odam qalbini yanglish yo'llarga burib yuborishning javobi juda og'ir.

Qabuliga kelgan kishiga psixolog maslahat bermaydi. To'g'ri yo'lni topishga yo'nalish beradi xolos. Bemorga tashxis qo'yish uchun uni tinglaydi, muammolarini aniqlaydi va ruhiy yordam beradi. Psixologlardan bir soatda katta o'zgarish yoki mo'jiza kutish – bema'nilik. Afsuski, buni hamma ham bilavermaydi.

his qilmay, ommaviy seanslar, turli terapiyalarni bosib o'tkazaveradi. Ochig'i, bunaqa ishlar zamonaviy fribgarlikning bir ko'rinishidir. O'zgalarning tashvishidan foydalanib, jaraq-jaraq pul qilayotganlar hech kimdan qo'rqmayotgani xavotir uyg'otadi kishida. Nima, odamlarni turli yolg'onlar – "naslni tozalash", "genetikani o'zgartirish", "pul chaqirish san'ati"ga o'xshash yuzlab ahmoqona mavzular bilan jalb etayotganlarga shahar bedarvozami? Ularning faoliyatini mutasaddi tashkilotlar qat'iy nazoratga olishi kerak.

Shoira ISOQOVA, oila va bolalar psixologi:

– Avvalo, psixologiyaning hech qanday yo'nalish yoki oqimga taalluqli emasligini aytib o'tmoqchiman. Bu falsafadan ajralib chiqqan bir yo'nalish va inson ruhiyatini o'rganuvchi fan. Buni bilgan-bilmagan, o'qigan-o'qimagan odamlar ham omma oldiga chiqib, o'zidan bir xaloskor yasay boshladi. Buning hisobiga ilmsiz, soxta psixologlar qatlami vujudga keldi. Ya'ni ular pul evaziga biznes boshlab, inson ruhiyatini obyekt qilib oldi.

Amaliyotda esa hech qayerda o'qimagan yoki kimlarningdir ikki yo uch oylik kursida, seminarida qatnashib "sertifikat" olganlar o'zini psixolog sifatida tanishtiryapti. Oqibatda ruhiy bemorlarning ahvolini battar og'irlashtirib qo'yishyapti. Pixologiyaning barcha uslublari ilmiy asosga ega, unda ko'p yillik tadqiqotlar natijasida yo'lga qo'yilgan metodlar qo'llanadi. Umuman, shaxsni o'rganmay, uning individual xususiyatlarini, ijtimoiylashuv jarayonlarini bilmay, bu sohaga kirishish mumkin emas. Chunki bu soha insonning ruhini, ongini nafaqat yaxshi tomonga, balki yomon tarafga o'zgartirib yuborishi ham hech gap emas.

O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasi a'zosi Shoira Isoqovaning bildirishicha, hozir Adliya vazirligi bilan hamkorlikda bu borada hujjat tayyorlangan. Shu kunlarda psixologlar faoliyatini nazorat qiluvchi me'yoriy hujjat ishlab chiqilishi kutilmoqda. Agar hujjat qonuniy kuchga kirsas, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta psixologlar faoliyati o'rganiladi va litsenziya masalasi o'rta qo'yiladi. Ya'ni soha qonun bilan qat'iy tartibga solinadi.

Feruza RAIMJON qizi

Fransiya poytaxti Parij shahri mezbonlik qilgan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari yakunlandi. O'zbekiston delegatsiyasi "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarini o'z tarixidagi eng zo'r natija bilan tugatdi! Ushbu muvaffaqiyatga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham katta ulush qo'shdi – 3 nafari oltin, bir nafari kumush medalni qo'lga kiritdi. Xususan, Ulug'bek Rashitov ikki karra Olimpiya o'yinlari chempionligiga erishgan ilk o'zbek taekvondochisiga aylandi!

Har to'rt yilda o'tkaziladigan dunyoning eng nufuzli musobaqasi bu gal 206 davlatning 10 714 nafar yetakchi sportchisini jamladi. 32 ta sport turi bo'yicha g'oliblik uchun o'zaro bahslar keskin va murosasiz hamda Olimpiya rekordlari ostida kechdi. XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari O'zbekiston sportchilari uchun ham tarixiy voqealarga boy bo'ldi, bir qator yo'nalishlarda yangi cho'qqilar zabt etildi.

Avvalo, shuni ta'kidlash joiz, "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga O'zbekiston o'z tarixidagi eng katta delegatsiya – 90 nafar sportchi bilan bordi va 19 sport turi bo'yicha bahslarida ishtirok etdi. Erishilgan muvaffaqiyatlar ham shunga yarasha yuqori darajada bo'ldi. Eslatib o'tamiz, bundan 8 yil muqaddam Braziliyada o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz olimpiyachilari 4 ta oltin, 2 ta kumush, 7 ta bronza, jami 13 ta medal bilan umumjamoa hisobida 21-o'rinni egallagandi. Bu mustaqil O'zbekiston sportchilarining shu paytga qadar Olimpiada o'yinlaridagi eng yaxshi natijasi edi. Fransiyada kechgan bu yilgi XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida esa yurtimiz sportchilari yanada yaxshiroq natijalarga erishdi. Umumjamoa hisobidagi o'rin ham yuqorilandi – 13-o'rin! Ushbu tarixiy muvaffaqiyatga armiyamiz sportchilari ham katta ulush qo'shdi. "Parij – 2024"da ishtirok etgan MVSMning 22 nafar sportchisidan yakunda 4 nafari sovrindor bo'ldi. Yana bir necha nafari medalni qo'lga kiritishga juda yaqin bordi. Ammo, lekin, biroq... Olimpiada o'yinlari shu jihatlari bilan ham qiziq, jozibali, maftunkor!

BOKS

"Parij – 2024" tatamilarida O'zbekiston dzyudosi tarixiga oid bir necha yo'nalishda yangi cho'qqilar zabt etilgani, uni MVSM vakili leytenant Diyora Keldiyorova



boshlab bergani haqida gazetamizning avvalgi sonlarida batafsil to'xtalgandik. Polvonlarimiz muvaffaqiyatini charm qo'lqop ustalarimiz davom ettirdi.

XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari orqali mamlakatimiz boks tarixida ham yangi sahifalar ochildi. Xususan, "Rio – 2016"da oltin medalni qo'lga kiritgan charm qo'lqop ustamiz Hasanboy Do'smatov "Parij – 2024"da ham zafar quchdi va faoliyatida ikkinchi bor Olimpiya chempioniga aylandi! Binobarin, shu paytga qadar yurtimiz boks tarixida hech kim ikki karra Olimpiya chempioni bo'lmagandi. Eng yengil (-51 kg) vaznli bokschimiz yarim finalda kubalik Devid de Pineni, hal qiluvchi final jangida esa fransiyalik Billal Bennamani mag'lub etib, g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi.

Yana shunga alohida urg'u berish joiz, o'zbekistonlik 5 nafar bokschi XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari finalchisiga aylangani dunyo matbuotini hayratga solib turgan bir pallada barcha charm qo'lqop ustamiz final janglarida ham g'alaba qozondi! Bosh qahramonlardan biri Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev bo'ldi. -71 kg vazn toifasida jahon chempioni hisoblangan yosh bokschimiz finalda meksikalik Marko Alvaresga to'qnash keldi. Keskin jangda bokschimiz zafar quchib, faoliyatida Olimpiya chempionligiga ham erishdi.

Boks bo'yicha navbatdagi oltin medalni Lazizbek Mullajonov (-92 kg) qo'lga kiritdi. U finalda ozarbayjonlik Loren Alfonso Domingesga qarama-qarshi keldi va o'zining aniq hamda kuchli zarbalari orqali raqibini dog'da qoldirdi.

O'tgan galgi yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni Bahodir Jalolov (+92 kg) ham "Parij – 2024"da shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarilib, ketma-ket ikki bor Olimpiya chempionligiga erishgan bokschiya aylandi. Jalolov so'nggi hal qiluvchi final bahsida ispaniyalik Ayyub Gadfaga qarshi raqobatlashdi. Bahodir jang davomida o'zining metin himoyasi va kuchli zarbalari orqali raqibidan ustun keldi.

Ta'kidlab o'tamiz, 1994-yili Surxondaryo viloyatida tug'ilib, 13 yoshidan murabbiylar Rustam Saidov va To'liq Qilichev qo'l ostida boks sirlarini o'rgangan Bahodir Jalolov faoliyati davomida juda ko'plab xalqaro turnirlarda shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarilgan. Jumladan, uch karra Osiyo, ikki karra jahon chempioniga aylangan, Osiyo o'yinlarida ham tengsiz bo'lgan. Uning bu ulkan g'alabalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan

munosib baholangan. Davlatimiz rahbari yengilmas sportchimizni 2019-yilda "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni, 2021-yilda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni va 2023-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni bilan taqdirladi.

XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida bokschilarimiz qo'lga kiritgan 5-oltin medal buxorolik Abdulmalik Xalokovga tegishli bo'ldi. -57 kg vazn toifasida ringga ko'tarilgan bokschimizning musobaqa finalida qirg'izistonlik Munarbek Seitbek o'g'li bilan o'tkazgan jangini ko'hna va boqiy Buxoroning "Poyi Kalon" majmuasida o'rnatilgan katta ekranda Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripov boshchiligidagi keng jamoatchilik – Xalokovning o'tonasi, mahalladoshlari, yaqinlari, yuzlab boks muxlislari birga tomosha qildi. Abdulmalik ishonchni oqladi – raqibini mag'lub etib, Olimpiya chempioni bo'ldi! Uning g'alabasini nafaqat buxoroliklar, butun O'zbekiston ahli katta shodiyona bilan kutib oldi. Chunki ushbu tarixiy g'alaba sportchilarimizning XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida erishgan muvaffaqiyatlari g'aznasiga 8-oltin oltin medal bo'lib qo'shildi.

O'zbekiston boks terma jamoasi 5 ta oltin medal bilan "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida peshqadamlikka erishdi. 2-o'rinni Xitoy (3 ta oltin, 2 ta kumush), 3-o'rinni Xitoy Taypeyi (bitta oltin, 2 ta bronza) terma jamoasi egalladi.

TAEKVONDO

XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlariga yurtimizning 5 nafar taekvondochisi yo'llanma olgani, ularning barchasi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ekani xususida xabar bergandik. "Parij – 2024"ning taekvondo WT bo'yicha bahslarida bu sportchilarimizning ikki nafari shohsupaga ko'tarildi. Ta'kidlash joiz, ularning ikkisi ham tarixiy natija qayd etdi. Xususan, -68 kg vazn toifasida dayanga chiqqan MVSM vakili Ulug'bek Rashitov nimchorak finalda Lo Vay Fungdan (*Hong Kong*), chorak finalda Lyan Yushuaydan (*Xitoy*), yarim finalda Xavyer Peres Polodan (*Ispaniya*) ustun keldi. Hal qiluvchi final bahsida esa Zayid Karim (*Iordaniya*) bilan raqobatlashib, g'alaba qozondi va yozgi Olimpiada o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritdi. Ulug'bek "Tokio – 2020"da ham zafar quchgandi. "Parij – 2024"dagi yutuq bilan Ulug'bek Rashitov Olimpiada o'yinlarining ikki karra g'olibligiga erishgan birinchi o'zbek taekvondochisi sifatida o'z nomini sportimiz solnomasiga muhrlab qo'ymoqda.

2002-yilning 23-mart kuni Toshkent shahrida tug'ilgan Ulug'bek Rashitov 8 yoshidan MVSM murabbiyi Pavel Xan qo'l ostida taekvondoning nozik sir-asrorlarini o'rgandi. 2017- va 2019-yillar

2024'' O'YINLARIDA NATIJA QAYD ETDI

o'smirlar o'rtasida Osiyo chempioni bo'lgan. 2018-yili Argentinada o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi yozgi Olimpiada o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritgan. 2019-yilgi Butunjahon harbiy o'yinlarida shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan. 2021-2024-yillarga qadar o'tkazilgan Gran-pri turnirlari, jahon, qit'a chempionatlari hamda nufuzli musobaqalarda g'olib va sovrindorlar qatoridan joy olgan. Jumladan, "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarida zafar qozonib, o'zbek taekvondochilari o'rtasida birinchi oltin medalni qo'lga kiritgan sportchi sifatida tarixga kirdi. 2021-yili Islom birdamlik o'yinlarida g'olib chiqdi. 2023-yili Xitoyda o'tkazilgan Osiyo o'yinlaridan ham yurtimizga oltin medal bilan qaytdi. Prezidentimiz tomonidan u "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

MVSM vakili Svetlana Osipova (+67 kg) ham "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida yaxshi qatnashdi. U yarim finalda taekvondo vatani vakili, janubiy koreyalik Li Dabindan ustun keldi. Finalda esa fransiyalik Altea Loranga qarshi dayanga chiqdi. Ushbu jangni chirchiqlik sport ishqibozlari "Kimyogarlar" madaniyat saroyida kuzatib, Osipovani hamshaharlari sifatida qo'llab-quvvatladi. Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev ham Svetlananing ota-onasi, muxlislari safida final uchrashuvini tomosha qildi. Zero ushbu jang qanday tugashidan qat'i nazar, sportchimiz mamlakatimiz taekvondo WT tarixiga Olimpiada sovrindori bo'lgan o'zbekistonlik ilk ayol sportchi sifatida kirardi.

- Biz oltin kutgan edik, lekin kumush medal ham yaxshi natija bo'ldi, - deydi

sportchining dadasi Valeriy Osipov. - Hamshaharlarimiz, yaqinlarimiz bilan birgalikda o'yinlarni hayajon bilan kuzatib bordik. Ochig'i, juda xursandman. Qizimning erishgan yutug'idan ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Bu nafaqat oilamiz, balki butun yurtimiz uchun mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz uch yilligi oldidan katta sovg'a bo'ldi.

Ozoda Sobirjonova (-67 kg) ham "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida sovrindor bo'lishga juda yaqin bordi. Lekin MVSM taekvondochisi bronza medal uchun kechgan so'nggi jangda belgiyalik Sara Chariga yutqazib qo'ydi. Taekvondochilarimiz Jasurbek Jaysunov (-80 kg) va Nikita Rafalovich (+80 kg) esa "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ishtirokini bronza medal uchun o'tish bosqichidagi jangda to'xtatdi.

SPORT KURASHLARI

Erkin kurash bo'yicha polvonimiz Razambek Jamalov (-74 kg) Fransiyada o'tkazilgan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi. U ilk bahsini neytral maqomda kurashayotgan "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarining kumush medali sohibi Magomedhabib Kadimagomedovga qarshi o'tkazdi va irodali g'alabaga erishdi. Chorak finalda albanialik Chermen Valiyevni, yarim finalda esa tojikistonlik Viktor Rassadinni mag'lubiyatga uchratdi. Musobaqaning so'nggi hal qiluvchi final bahsida Razambek polvon yaponialik Daiti Takatani bilan raqobatlashdi. Mazkur bellashuvda polvonimiz muddatidan oldin

XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari sovrindori bo'lgan o'zbekistonlik sportchilar:



Oltin medal:

Diyora Keldiyorova (*dzyudo*, -52 kg, MVSM)
Ulug'bek Rashitov (*taekvondo WT*, -68 kg, MVSM)
Razambek Jamalov (*erkin kurash*, -74 kg)
Hasanboy Do'smatov (*boks*, -51 kg)
Abdumalik Xalokov (*boks*, -57 kg)
Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev (*boks*, -71 kg, MVSM)
Lazizbek Mullojonov (*boks*, -80 kg)
Bahodir Jalolov (*boks*, +92 kg)



Kumush medal:

Akbar Jo'rayev (*og'ir atletika*, -102 kg)
Svetlana Osipova (*taekvondo WT*, +67 kg, MVSM)



Bronza medal:

Muzaffarbek To'raboyev (*dzyudo*, -100 kg)
Alisher Yusupov (*dzyudo*, +100 kg)
G'ulomjon Abdullayev (*erkin kurash*, -57 kg)



zafar quchdi va Olimpiya o'yinlari g'olibiga aylandi.

"Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida yana bir erkin kurashchimiz sovrindor bo'ldi. Aniqrog'i, hamyurtimiz G'ulomjon Abdullayev 57 kg.gacha vaznda bronza medal uchun kechgan kurashda qirg'izistonlik Bekzat Almaz o'g'lidan ustun keldi.

Erkin kurashchimiz Javrail Shapiyev (-86 kg), rum kurashchilarimiz Aram Vardanyan (-77 kg) va Rustam Assakalov (-97 kg) ham "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida sovrindor bo'lishga yaqin bordi. Lekin bu polvonlarimiz bronza medal uchun kechgan so'nggi hal qiluvchi bahsda raqiblariga imkoniyatni boy berib qo'ydi va XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarini faxrli 5-o'rin bilan yakunladi.

OG'IR ATLETIKA

Og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Akbar Jo'rayev "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarida rekord natija qayd etgan holda 109 kg.gacha vazn toifasida Olimpiya o'yinlari g'olibiga aylangandi. U "Parij - 2024"da ham shohsupaga ko'tarildi. XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida 102 kg.gacha vazn toifasi bo'yicha atletlar bahsida ishtirok etgan Akbar polvon dast ko'tarishda 185 kg natija qayd etgan bo'lsa, siltab ko'tarishda 219 kg og'irlikdagi shtangani o'ziga bo'ysundirdi va ikkikurash bo'yicha 404 kg natija bilan "Parij - 2024" Olimpiya o'yinlarining kumush medaliga ega chiqdi.

MVSM og'ir atletikachisi Rigina Adashbayeva esa "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ishtirokini 8-pog'onada yakunladi. -81 kg vazn toifasida musobaqada ishtirok etgan MVSM vakili dast ko'tarishda 105, siltab ko'tarishda 131 va ikkikurashda 236 kg natija ko'rsatdi.

Og'ir atletikachimiz Tursunoy Jabborovanning chiqishi bilan sportchilarimizning "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki yakuniga yetdi. +81 kg vazn toifasida qatnashgan yurtdoshimiz dast ko'tarishda 118, siltab ko'tarishda 133, ikkikurash bo'yicha esa 251 kg natija bilan musobaqani 10-o'rinda tugatdi.

SARHISOB

Shunday qilib, Fransiya poytaxti Parij shahrida dunyoning 206 davlatidan 10 ming nafardan ortiq sportchi qatnashgan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari yakunlandi. Uni tarkibidan MVSM vakillari ham o'rin olgan O'zbekiston delegatsiyasi o'z tarixidagi eng zo'r natija bilan tugatdi! Muzaffar atletlarimiz murosasiz bellashuvlar davomida 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza, jami 13 ta medalni qo'lga kiritib, Yangi O'zbekiston qahramonlariga aylandi. Bu natija bilan delegatsiyamiz umumjamoa hisobida 206 mamlakat orasida 13-o'rinni egalladi. Italiya, Vengriya, Shvetsiya, Braziliya, Ukraina, Eron, Ruminiya, Belgiya kabi jahon sportida o'z salohiyatiga ega bir qator mamlakatlar bizdan ortda qoldi. O'zbekiston Osiyoda to'rtinchi, shuningdek MDH, Markaziy Osiyo mintaqasi, Islom birdamligi va Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'ldi.

"Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yana ko'plab jihatlari bilan sportimiz tarixiga muhrlanmoqda. Jumladan, birinchi bor ayol atletimiz yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin medalga sazovor bo'ldi, bokschilarimiz 5 ta oltin medal bilan umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi, Olimpiadalarda ilk bor dzyudochilarimiz 3 ta, taekvondochilarimiz esa 2 ta medalga sazovor bo'ldi va hokazo...

Parijdagi "Stad de Frans" stadionida XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Teatrlashtirilgan bu marosim "Rekordlar" nomi ostida o'tkazildi. Unda dunyo davlatlarining sport jamoalari o'z bayroqlari bilan maydonda saf tortdi. Tadbiri stadionda bevosita 70 ming nafar tomoshabin kuzatib bordi. Mazkur yopilish marosimida O'zbekiston delegatsiyasi bayroqdori vazifasini taekvondo WT bo'yicha ikki karra Olimpiya o'yinlari g'olibi, MVSM vakili Ulug'bek Rashitov bajardi.

"Parij - 2024" o'yinlarining tantanali yopilish marosimi so'ngida yozgi Olimpiada o'yinlari bayrog'i "Los-Anjeles - 2028" tashkiliy qo'mitasiga topshirildi. Shunday ekan, biz ham xayr, "Parij - 2024", salom, "Los-Anjeles - 2028", deb qolamiz.

Rasul JUMAYEV,
"Vatanparvar"

Ibratli hayot yo'llari

Vatan! Oddiygina so'z. Ammo bu so'zning zamirida juda katta ma'no mujassam. Vatan – kishining kindik qoni tomgan qutlug' go'sha, asrlar osha ota-bobolarimizdan kelajak avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, o'zimiz va o'zligimizga xos bo'lgan qarashlarni o'zida jo etgan muqaddas maskan. Kishi ota-onasini tanlay olmaganidek, Vatani ham tanlay olmaydi. Yurtidan olisda bo'lganida esa uni yurak-yuragidan nimadir ortga chorlayveradi. Faqat o'z oshyoniga qaytgachgina hammasi odatiy holga tushadi. Bu holatni har kim turlicha talqin etsa-da, aslida bu – Vatanga muhabbat, yurt sog'inchi deya nomlanadi.

Bu maskanni asrab-avaylash va himoya qilish esa haqiqiy mardlarga xos fazilatdir. Qadimda yurt uchun kurashgan vatanparvarlardan biri, Najmiddin Kubro mo'g'ullar bosqiniga qarshi janglardan birida "Yo Vatan, yo sharafl o'lim!" deya el himoyasiga otlangan edi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, mo'g'ullar sultoni Najmiddin Kubroga bir necha bor qal'ani sog'-salomat tark etib ketishi uchun imkon beradi. Biroq bobokalonimiz mo'g'ullar qo'shini son jihatidan ustun ekanini bilsa-da, Vatanni asrash yo'lida jon fido etishni o'z burchi deb biladi.

Bugun ham ana shunday fidoyi ajdodlarimizga munosib vorislar sifatida yurt himoyasida "labbay" deb turgan, tomirlarida yuksak sadoqat va burch tuyg'ulari jo'sh urib, ko'pchilikka o'rnak bo'la olayotgan mardlarimiz juda ko'p. Maqolamiz qahramoni iste'fodagi 2-rang kapitani Abduqodir Xolto'rayev ham o'zining ko'p yillik hayotiy tajribasi va jangovar-xizmat faoliyati bilan yoshlarga ibrat bo'lib kelayotgan asl vatanparvarlardan biri.

Abduqodir Xolto'rayev 1959-yil 12-yanvarda Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida ishchi oilasida dunyoga kelgan. Ko'p farzandli oilada to'rtinchi farzand sifatida dunyoga kelgan qahramonimiz 1966-yilda shahardagi umumta'lim maktablaridan biriga o'qishga chiqadi. O'qib yurgan kezlarda u tarix, adabiyot, tasviriy san'at va chizmachilik fanlariga juda qiziqar edi. Ayniqsa, tarixiy adabiyotlardagi mahobatli bino va inshootlarni ko'rib, ularning barpo etilishiga oid ma'lumotlarni o'rganishga intilar va "Qaniydi, men ham kelajakda arxitektor bo'lsam", deya orzu qilardi. Ana shu orzular uni arxitektura sohasiga kirib kelishiga turtki bo'ldi va shu yo'nalishdagi oliygohni tamomlagach,

1982–1985-yillarda Termiz shahri arxitektura tashkilotida o'z ish faoliyatini boshladi.

1985–1988-yillarda baynalmilal jangchi sifatida muddatli harbiy xizmatni o'tagan Abduqodir Xolto'rayev xizmatdan qaytgach, 1988–1995-yillar davomida Termiz shahridagi arxitektura tashkilotida faoliyat olib bordi va boshliq o'rinbosari lavozimigacha ko'tarilib, o'tgan yillar davomida shahar arxitekturasini yaratish hamda obodonlashtirish ishlarida jonbozlik ko'rsatdi.

Ta'kidlash kerakki, "chegara shahri" bo'lgan Termizda tug'ilib, voyaga yetgan Abduqodir Xolto'rayevning harbiylikka, ayniqsa chegara xizmatiga qiziqishi ham o'zgacha edi. Ana shu qiziqishlar sabab u 1995-yilda Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlardan biriga haqiqiy harbiy xizmatga qabul qilindi. O'zining mardligi, tashabbuskorligi va shijoati bilan safdoshlariga o'rnak bo'lib kelgan qahramonimiz 2000-yilda viloyatning Sariosiyo tumani tog'li hududlarida olib borilgan harbiy harakatlar chog'ida ham zimmasidagi vazifalarni sadoqat bilan bajarib, barcha mashaqqatlarni mardonavor yengib o'tdi va yuksak vatanparvarlik namunalarni ko'rsatgani uchun "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

Iste'fodagi 2-rang kapitani Abduqodir Xolto'rayev o'z faoliyati davomida DXX Chegara qo'shinlari harbiy qismlarida turli lavozimlarda faoliyat yuritdi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini tashkillashtirishga oid ko'plab tadbirlarga boshchilik qildi.

– Xizmatimni daryo massivida davlat chegarasini qo'riqlashdan boshlaganman. Menga harbiy dengiz floti libosini berishganida juda ta'sirlangandim. Chunki chegara xizmati menga begona emasdi, bolaligimdan chegarachilarni

ko'rib, ularning o'zlariga yarashib turgan harbiy liboslariga havas bilan katta bo'lganman. Ammo sarhadlarimizni suv sathida qo'riqlashning o'ziga xosliklari juda ko'p ekan. Suvning past-balandligi, to'lqinlar, farvaterlarning o'zgarib turishi kishiga zavq bag'ishlashi bilan birga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu sababli suvli hududlarda xizmat qiladigan chegarachilar juda zukko, bilimdon bo'lishlari, tabiat va suv bilan tillasha olishlari kerak. Chunki daryoning o'zgacha ohanrabosi bor.

Albatta, biz xizmat qilgan davrlarda hozirgidek sharoitlar yo'q edi. Shunga qaramay, har qanday holatda ham o'z burchimizni sidqidildan ado etishga intilganmiz. Bugun izdoshlarimiz uchun yaratilayotgan qulayliklar, zamonaviy katerlarni ko'rib, havasim keladi va doimo ularga bundan unumli foydalanishlari kerakligini ta'kidlayman. O'zim 2011-yildan buyon nafaqada bo'lishimga qaramay, hozirgi kunga qadar DXX Chegara qo'shinlari, shuningdek Mudofaa vazirligining Surxondaryo viloyatida joylashgan bo'linmalarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida o'tkazilayotgan tadbirlarda doimiy ishtirok etishga va barkamol avlod tarbiyasiga munosib hissamni qo'shishga harakat qilib kelmoqdaman, – deydi qahramonimizning o'zi.

5 nafar farzandning otasi, 14 nafar nabiraning sevimli bobosi Abduqodir Xolto'rayev bugungi kunda yaqinlari davrasida keksalik gashtini surmoqda. O'z irodasi, matonati-yu jasorati bilan ko'pchilikka ibrat bo'larli bu fidoyi insonga uzoq umr, sihat-salamatlik tilagan holda, yana ko'p yillar davomida shaxsiy namunasi bilan ertamiz egalarini kamolot sari yetaklashini tilab qolamiz.

Davlat NE'MATOV,
DXX Chegara qo'shinlari harbiy
qism yetakchi mutaxassisi



Kecha

Turkiyni jangchi tili deyishadi

Ortiqcha dabdaba va pafosdan yiroq, samimiylilik va oddiylikka yaqin o'ziga xos til kechasi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligida bo'lib o'tdi.

Ma'ruzadan keyin muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar o'zbek, turkman, qozoq, ozarbayjon, qoraqalpoq shoirlari – Boborahim Mashrab, Maxtumquli, Mullanafas, Abay, Maqsud Shayxzoda, Ibroyim Yusupov timsolida sahnaga chiqib, ularning she'rlaridan namunalar o'qidi.

– Turkiy til – dunyodagi eng go'zal va boy til. Bunga toshbitiklardan tortib hozirgacha turkiy tillarda yozilgan asarlarni o'qigan kishi amin bo'ladi. Manbalarda turkiyni jangchi tili ham deyishadi. Bugungi tadbirimizda askarlar faol bo'ldi. Ularga tilimizning butun qudrati-yu jilosini, harbiy



Turkiy tillar harbiy leksikasi mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan Chirchiq davlat pedagogika universiteti yosh olimasi Feruza Murodovaning ma'ruzasi harbiy xizmatchilar uchun yangi ma'lumotlarga boy bo'ldi. Uning

notiq sarkardalar hayotiga oid qiziqarli voqealar misolida aytgan fikr-mulohazalari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida nutqning ahamiyati borasidagi xulosalari yig'ilganlarni befarq qoldirmadi.

ishlarda qo'llanilishini, askarlarni ruhlantirish, ularga quvvat baxsh etishdagi rolini yetkazishga harakat qildik, – deydi tadbir tashkilotchisi kichik serjant Dilnoza Sulaymonova.

F. ERGASHEV

Onam yo'lga chiqibdi...

Hamkasbimiz Rasul Jumayev ta'tildan qaytdi. Ertalab yonmayon eshiklar oldida turib: "Avval kim bilan ko'rishsam ekan, opa bilanmi yoki boshliq bilanmi?" deb ovoz chiqarib o'ylab, birpas turdi-da, boshliqni tanladi. Boshliq – bo'lim boshlig'i ofitser Gulnora Hojimurodova, opa – kaminangiz. Opa o'rnidan qo'zg'alguncha boshliq allaqachon hol-ahvol so'rashib, xayrlashib ham bo'ldi.

Bir oylik ta'til qanday o'tgani uch-to'rt og'iz gap bilan aytildi-qo'yildi. Odam degani ham shunchalik zerikarli bo'ladimi? (O'zbek matbuotining tirik afsonasi, Xalqaro olimpiya qo'mitasi raisi Xuan Antonio Samaranch qo'lidan Olimpiya ko'krak nishonini olgan eng kuchli sport jurnalisti... o'zi bir kitob bo'ladigan odam o'tkazgan ta'tilini uch-to'rt og'iz gapda tugatsa, qoyil qolmaysiz-ku?)

Aslida yaxshi o'tibdi ta'til. Biroq bir-ikki kun avval, ta'til oxirlayotgan kunlari Chirchiqda yashaydigan qiyomatli do'sti olamdan o'tibdi. Buyog'iga endi bu insonga savol berish kerak. Biz bir-birlarimizning do'stlarini ham biladigan hamkasblarmiz.

– Qiyomatli do'st qanday bo'ladi? Boshqa do'stlaringiz qiyomatli emasmi? Shu do'stingiz haqida gapirmagan ekansiz.

– Nurota va Qo'shrabot tomonlarda shunday do'stlik bo'ladi. Bolalikdan do'st tutinadi. Buni kattalar qo'y so'yib, ko'pchilikni chorlab, ma'lum qiladi.

– Do'stni kim tanlaydi? Kattalarmi?

– Bolalar kim bilan ko'proq o'ynasa, kim bilan ko'proq yaqin bo'lsa, do'stlik rishtalarini kattalar shunday bog'laydi. Do'st tutinishga

kattalar shu qadar jiddiy ahamiyat beradi.

– Agar ikki bola kelajakda batamom boshqa yo'llarni tanlab, bir-biridan uzoqlashib ketsa-chi?

– Ehtimol, uzoqlashar, ammo uzilib ketmaydi bir-biridan. Bizni bir-birimiz bilan bog'lagan u marosim shunchaki o'tkazilmagan. Aka-ukalar safiga yana bir birodarimiz qo'shilgan. Qimmat ana shunda!

– Do'stingiz kasalmid?

– 2020-yilda Covid yuqtirgandi. Shundan keyin hech o'nglanmadi. Yuragida asorat qoldirgan edi.

Chirchiqda yashayotganiga ham ko'p bo'lgani yo'q. Jizzaxning Zafarobod tumaniga, akasinikiga olib bordik. Akasinikidan chiqardik. Ta'ziasida odam ko'p bo'ldi. Samarqandda, Qo'shrabotda hech kimi qolmagan...

– Insonning biror yaqini olamdan o'tsa, go'yo hayotining bir qismi ham o'lgan odam bilan birga qo'shilib ketgandek bo'lar ekan, – dedim o'z yo'qotishlarim haqida o'ylab.

– Bilmadim. O'limni, o'zimni o'yladim... Qo'shrabot bilan Zafarobod orasi juda uzoq. Ularni bir-biriga bog'laydigan muntazam transport yo'nalishi ham yo'q. Qo'shrabotdan ham ko'pchilik kelibdi.

Boshqa joylarda qanday, bilmadim, Qo'shrabotda mayitni qabrga qo'yib kelgach, oilaning erkaklari, o'zini shu oilaga yaqin bilganlar ta'ziasini xonadonning ayol-qizlari bilan ko'rishadi. Og'ir holat... Biz ham fotiha o'qib, hovliga kirganimizda alohida o'tirgan ayollar to'pidan onam ajralib chiqib, men tomon kela boshladi. Uni ko'rdim-u... bag'ringa bosib, ixtiyorsiz to'kildim, yuragimni ezib yotgan ayriliq dardi yig'i bo'lib, bo'g'zimdan otildi... Keksa onam, yo'lning olisligiga ham parvo qilmay, o'g'illari qatorida o'g'il deb bilgani bir erkakni oxirgi yo'lga kuzatishga kelibdi. Uning ortidan boshqalar ham ergashibdi.

* * *

Mana, oddiygina bir suhbat. Aziz o'quvchi, siz shundan keyin ham odamlar orasida mehr-oqibat yo'qolib ketgan, deb o'ylaysizmi?! Do'stlik ham manfaatlar ustida quriladi, degan qarashingizda sobit qolaverasizmi? Tosh shahar qalblarni qattiqlashtiradi, degan gaplarni eshitganmiz. Hammaning ham qalbi qattiqlashmas ekan-ku?! Hammaning ham qalbi tor emas ekan. Hammasiga o'zimiz, faqat o'zimiz...

Bu oddiygina voqeada meni mutaassir qilgan holatni aytmasam bo'lmaydi. Bu saksonni qoralab qolgan Onaning oqibati. O'tgan kunlar havo juda issiq bo'ldi. Salqin kabinetlardan, xonalardan chiqish ham malol bo'ldi, shaxsan o'zim uchun. O'shanday kun, quyosh atrof-javonibni kuydirayotgan bir pallada kekxa ayol mehr-oqibatning oliy namunasini ko'rsatib, olis yo'lga otlandi. O'sha ta'ziasiga bormasa, onadan birov o'pkalar edimi? Yo'q! U farzandlarini sevadi, sevgili farzandining do'sti ham unga aziz edi, o'g'illari qatorida deb bilardi. Uni yo'lga solgan ana shu beminnat onalik mehri, muhabbati edi!

Bor bo'lsin, o'zbekning mehr-u oqibatda ibrat Onalari!

Aziz o'quvchi, sizning ham do'stingiz bormi? Qanday qilib do'st bo'lgansiz?

Aziz onalar, o'g'lingizning yaqin do'sti, jo'rasini bilasizmi? Ularni Rasul Jumayevning onasi kabi bir-birlariga qadr otli ko'rinmas rishtalar bilan bog'lashga uringanmisiz?

Do'stlik ham ulug' siylov! Kamdir, ko'pdur, yagonadir, har kimning ham do'sti bo'lsin.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

Uch avlod uchrashuvi

Faxriylar sabog'i

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug katta majlislar zalida boshqaruv apparati ofitserlari va Qurolli Kuchlar xizmatchilari bilan "Biz bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori ostida "Uch avlod uchrashuvi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.



Unda harbiy okrug faxriylar kengashi raisi iste'fodagi podpolkovnik Sharif Madiyev, harbiy okrug tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari podpolkovnik Nurilla Obidov, faxriylar kengashi hamda jangchi faxriylar uyushmasi a'zolari Qahramon Rahmonqulov, Farhod Bozorov, Yashin Bozorov ishtirok etdi.

Tadbirida mustaqillik yillarida O'zbekiston Qurolli Kuchlarida amalga oshirilgan islohotlar, harbiy kadrlarning salohiyati yangi pog'onaga ko'tarilgani, jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi yuksalgani, moddiy ta'minot masalalari, xalqaro maydonda erishgan yutuqlari, davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan ofitser va serjantlar nufuzi, armiyamiz kuch-qudrati haqida so'z yuritildi.

Qarshi garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestri rahbari mayor Maqsud Raimov o'zbek mumtoz ashulalari bilan bayramona kayfiyat ulashish maqsadida barchaning ko'nglini xushnud etdi.

Tamara MAMANOVA,
okrug boshqarmasi mutaxassisi

Yo'l harakati madaniyati

Navoiy viloyati IIB JXX YHXB tomonidan joriy yilning 6 oyida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan OAV vakillari, jurnalist va blogerlar ishtirokida press-tur hamda matbuot anjumani tashkil etildi.

Dastlab tadbir ishtirokchilari Karmana tumanidagi markaziy avtoshohbekatda bo'lib, unda piyodalar uchun mo'ljallangan yerosti yo'li mavjudligi va piyodalar bundan foydalanmagan holda, o'zlarini xavf ostiga qo'yib, yo'lning belgilanmagan qismlaridan harakatlanish hollari hanuzgacha kuzatilishi ta'kidlandi. Hozirda fuqarolarimiz uchun yerosti yo'lidan foydalanishda yoritish chiroqlari va kuzatuv kameralari o'rnatilib, ularning xavfsizligi ta'minlangan.

– Mutaxassislar tomonidan nafaqat haydovchilar, balki aholi uchun yo'llardan foydalanishda qulayliklar yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, – deydi viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i polkovnik Ravshan Yunusmetov. – Bunda fuqarolarimizning yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, yo'llarda yaratilgan sharoitlardan to'g'ri foydalanib, harakatni tartibga soluvchi yo'l belgilariga amal qilib, piyodalar o'tish chiziqlaridan foydalanilsa, yo'l-transport hodisalarining oldi olingan bo'lardi.

Tizim mutaxassislari bilan birgalikda jurnalistlar Nurota tumani yo'nalishidagi avtomobil yo'llarida amalga oshirilgan yo'l-transport hodisalarining oldini olish, shuningdek yo'l infratuzilmasini yaxshilash va harakat ishtirokchilari uchun yaratilgan qulayliklar bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, ular A379

xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'li, 4R57 Qizilqum halqa yo'li hamda M-37 Samarqand–Buxoro–Turkmanboshi avtomobil yo'llarida joriy yilda amalga oshirilgan ishlar bilan tanishtirildi.

– Navoiy viloyati yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi mas'ul xodimlari ishtirokida yo'l-transport hodisalarining oldini olish hamda yo'l harakati qoidalariga amal qilinishini ta'minlash yuzasidan qator ishlar olib borildi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Temur Ramazonov. – Nurota tumanining qatnov yo'liga 160 ta zamonaviy tungi yo'l yoritish chirog'i, xavfli burilish yo'nalishi yo'l belgilari, svetofor, radar mulyaji, multiradar, yo'naltiruvchi yo'l ko'rsatkichlari, shovqin chiziqlari, haydovchilarni ogohlikka chorlovchi bannerlar hamda ot, tuya, sigir kabi chorva mollarining maketlari o'rnatildi.

Yo'llarda yo'l-transport hodisalarining oldini olish va haydovchilarning kuchli charchoq holatini kamaytirish maqsadida "Nazorat kuzatuv posti" tashkil etildi. Ushbu postda inspektorlar tomonidan haydovchilarga avtomobil boshqaruvida xavfsizlik kamarini taqmasdan va spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda transport vositasini boshqarmaslik, boshqarish vaqtida uyali telefondan foydalanmaslik, tezlikni me'yordan oshirmaslik haqida ogohlantirib,

ularga turli avtohalokatlarning oqibatlari yuzasidan videoroliklar namoyish etilmoqda va ogohlantiruvchi bukletlar taqdim qilinmoqda.

– Navoiy–Nurota yo'nalishida taksi xizmatida bir yildan ziyod fuqarolarni o'z manziliga yetkazishda xizmat olib boraman, – deydi haydovchi Shahzod Abduhamidov. – Yo'llarda haydovchi va yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlashda bir qancha ishlar amalga oshirilib, biz, haydovchilar uchun "Nazorat kuzatuv posti" tashkil qilingani juda ham foydali bo'ldi. Tungi yo'l yoritish chiroqlari o'rnatilgani biz uchun yana ham quvonarli holdir. Oldinlari tungi vaqtda transportni boshqarish ancha qiyin kechardi. Hozir esa yo'llarimiz yorug', ravon.

Tadbir so'ngida jurnalistlar uchun yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi binosida matbuot anjumani tashkil etildi. Anjumanda viloyat hududida sodir bo'layotgan avtohalokatlar xususida va ularning turlari, shuningdek ayrim haydovchilar tomonidan yo'llardagi qoidabuzarliklar hamda joriy yilning yarmida amalga oshirilgan ishlar tahlili va kelgusidagi chora-tadbirlar yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berildi.

Dilafro'z XALILOVA,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi



Ishchi guruh faoliyati

Energiya samaradorligi o'rganildi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasida energiya samaradorligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli yuzasidan o'rganishlar olib borildi.

Jarayonda yirik iste'molchilarning faoliyati tahlil qilinib, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar bajarilishini ta'minlash choralari ko'rildi. Jumladan, Taxiotosh tumanidagi "Taxiotosh IES", Xo'jayli tumanidagi "Xo'jayli un mahsulotlari" MChJ, Nukus shahridagi "Nukus elektroapparat" qo'shma korxonasi kabi qator obyektlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi faoliyatida hamda aholi xonadonlarida energiya resurslarini iqtisod qilish imkoniyati bevosita o'rganildi.

Mas'ullar bilan muloqotlarda ortiqcha iste'molga sabab bo'layotgan holatlarni

bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi. Xonadonlardagi energiyani ortiqcha sarf qiluvchi uskunalarini tejamkoriga almashtirish choralari ko'rildi. Shuningdek, energiya resurslarini talon-toraj qilishning huquqiy oqibatlarini va aksincha ulardan oqilona foydalanishning afzalliklari bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berib o'tildi.

Yakunda o'rganishlar natijalari tanqidiy muhokama qilindi.

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan yig'ilishda bu sohada qonunchilik hujjatlari ijrosi va yonilg'i-energiya resurslaridan samarali foydalanish, ularni talon-toraj qilish holatlarining oldini

olish, yetkazilgan zararlarni undirish borasida amalga oshirilgan ishlar tanqidiy ko'rib chiqilib, ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Sohada qonuniylik ta'minlanishiga erishilmagan, energiya resurslari talon-toraj qilinish holatlarini fosh etish, yetkazilgan zararni undirish va boshqa ustuvor yo'nalishlardagi ishlar talab darajasida va samarali yo'lga qo'yilmagan hududlarning faoliyati tanqid qilinib, mutasaddi rahbarlar ogohlantirildi.

Adliya mayori Ulug'bek DAUBAYEV,
Nukus harbiy prokurorining
o'rinbosari

Insoniyatning eng yaxshi fazilatlaridan biri tarixga qarab xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Zero ajdodlar hikmati va sabog'iga tayanilsa, har qanday muammoning kalitini oson topish mumkin. Bu borada o'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkir ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish va anglash juda muhimdir.

O'rta asrlarda Sharqda yashab ijod qilgan, o'z davri voqealaridan guvohlik beruvchi bebaho asarlar yaratgan buyuk tarixchilar safida Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, hofizi Abro', Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa allomalarning nomlari alohida zikr etiladi. Bu tarixchilarning asarlarida XIV-XV asrlarda butun Sharqni qamrab olgan madaniy taraqqiyot homiysi – Sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlar faoliyati tasvirlangan.

Movarounnahr deb atalmish jozibador o'lkada yirik davlat barpo etgan Amir Temur siymosiga qancha ko'p murojaat qilinsa, shuncha yangilik, shuncha hikmat topiladigan barhayot ummondur. Bugungi kunda Sohibqiron hayotiga doir tarixiy manbalar tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi. Jumladan, Yurtboshimiz o'tgan yili Samarqandda bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati"



TARIXNING NURLI

YOG'DULARI

mavzusidagi xalqaro konferensiyada IV-XV asrlardagi O'rta Osiyo yozma manbalarini qiyosiy o'rganish bo'yicha uzoq yillardan buyon samarali ish yuritib kelayotgan professor Mansura Haydar xonim faoliyatini alohida e'tirof etgandi. Olimaning "Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarining tarixiy ahamiyati" deb nomlangan ilmiy monografiyasi xalqaro miqyosda keng e'tirof etilgan bo'lib, u Amir Temurning hayotligi davrida uning davlatchilik faoliyatiga bag'ishlab yozilgan yagona kitobni batafsil tadqiq etishga qaratilgan.

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan bobokalonimizning olamshumul xizmatini nafaqat yurtimiz olimlari, balki xorijlik tarixchilar ham yuqori qiziqish bilan o'rganishayotgani quvonarli, albatta. Shu bilan birga bu holat biz – Sohibqiron avlodlari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi, o'z tariximizni yanada teranroq o'rganishga va nodir qo'lyozma manbalarni tadqiq etishga chorlaydi.

Ana shunday manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarga alohida e'tibor bergan. O'rtada yuzaga kelgan har qanday siyosiy tanglikni o'ta mulohazakorlik va bosiqlik bilan yumshatishga intilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha, Sohibqiron 1402-yil 29-sentabrda Mavlono Badriddin Jazariyni Misrga elchi qilib yuboradi. Elchi olib kelgan xatda Rum mag'lubiyatga uchratilgani sababidan Misr va Shomda xutba Amir Temur nomi bilan o'qilishi va tanga zarb etilishi, Atilmishni esa Samarqandga yuborish shartlari bayon etilgandi.

Tarixchi Lyusen Kerrenning ta'kidlashicha, Misr va Shom hukmdori Barquq Amir Temurning kelishuvchanlik siyosatidan bosh tortib, elchini qatl ettiradi. Qolaversa, Bag'dod sultoniga boshpana berib, mamluklarning Oltin

O'rda bilan ittifoqini mustahkamlaydi. Sohibqiron shunda ham vazminlik bilan unga yana noma yo'llab, so'nggi bor g'animlik munosabatlaridan voz kechishini so'raganida, Barquq rad javobini beradi.

Hamisha "Kuch – adolatda" naqliga amal qilgan bobokalonimiz Amir Temur Barquq olamdan o'tgach, taxt vorisi Farajga elchi jo'natib, o'z maqsadini qayta ma'lum qiladi. Sulton Faraj yuz bergan xatolarni afsus bilan bo'yniga olib, Sohibqironga yuksak hurmatini izhor etadi. Shundan so'ng Misr va temuriylar saltanati o'rtasida muntazam elchilik va savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yiladi. Hatto 1404-yili Samarqandning Konigil mavzesida Amir Temur uyushtirgan katta to'y-tomoshalarda bir necha xorijlik mehmonlar safida Misrdan kelgan elchilar ham ishtirok etgani haqida ma'lumotlar bor.

Amir Temurning g'arbiy Yevropa davlatlari bilan ham olib borgan diplomatik aloqalari g'oyat samarali bo'lgan. 1404-yil avgust oyi oxirlarida Samarqandga yetib kelgan, Kastiliya va Lion qiroli Enriko III ning elchisi – Rui Gonsales de Klavixo va uning "Kundaliklar"i fikrimizni tasdiqlaydi.

Muxtasar aytganda, ulug' ajdodimiz Amir Temur saltanatida puxta xalqaro diplomatik an'ana shakllangan edi. "Temur tuzuklari"da ta'kidlanganidek, Sohibqiron ichki va tashqi siyosatga doir har bir masalada, avvalo, mashvaratga – ulamo va fozillar bilan kengashib ish tutishga odatlangan. Natijada yurt ravnaq topgan, xalq farovonligi ta'minlangan, ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Zero tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fanda taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsa, o'sha yerda ta'lim-tarbiyaga qiziqish va e'tibor kuchayadi.

Hulkar AHMEDOVA

SVAROVSKIY TOSHLARI

yoxud Alina Kabayevaga taqlid

Sport va fanda qizlarimizning g'alabasi haqida xalqimiz faxr bilan gapirmoqda. Bu shunchaki imkoniyati to'liq ishga solingan, oilaviy muhiti barqaror, yashab turgan hududida infratuzilmasi tuzukroq bo'lgan talantli qizlarning hayot tarzidan bir lavha xolos.

Qizlarimizda, ha, aynan bizning mahalla bosimi ostida katta bo'layotgan qizlarimizda turfa qobiliyatlar bor. Lekin e'tibor qilish, qunt qilib to'garakka olib borish boshqa jarayon. Ularni qo'lidan yetaklab, to'garakka olib borib, kunma-kun, soatma-soat sabr bilan mashaqqatlariga guvoh bo'lishga hamma ota-onaning ham saboti yetmaydi.

Qizim 6 yoshligida badiiy gimnastikaga qatnashni boshladi. Asosan o'zim olib borardim. Ishimdan, albatta, vaqt ajratardim. Gohida buvisi, bobosi ko'maklashardi. Jizzax shahrida bu paytda asosan "Matluba" (baxt uyi) sport zalida mashg'ulotlar faol olib borilardi.

Bir zumda mashg'ulotlarga kirishib ketdi. Qizlar ichkariga kirib ketganida

tashqarida kutayotgan onalar suhbatiga ham qo'shilmasdan, qiya eshikdan qizaloqlarning harakatini zavq bilan kuzatardim. Orada kichik hududlararo tanlovlar bo'lardi. Bu sport turiga shunchalik qiziqib ketdimki, qizimning uyga berilgan topshiriqlarni bajarishini ham nazorat qilardim.

Lekin qizimdan men kutgan zo'r natijalar ko'rinishiga xalal beruvchi omillar ko'p edi. Zal yozgi ta'tilda qaynab ketar, bir zumga kelib, keyin yo'qolib qoladigan qiz o'rtoqlari ham bisyor. Qizimdan ham harakatchan, qobiliyatli o'rtoqlarini keyinchalik ota-onalari umuman olib kelmasdan to'garaklarni to'xtatib qo'yishardi. Lekin biz chekinmadik. Mahalla ichkarisiga uzoqroq uyga ko'chib chiqqan bo'lsak-da, erinmasdan, issiqni issiq, sovuqni sovuq demasdan qatnayverardik.

Bir muddat qo'limda chaqalog'imga chalg'igan paytimizda murabbiy opamiz boshqa sport zalga ishini o'zgartirib ketib qolibdi, izlab bordik. Eh-hey, u yerda shogird qizlar ko'pligidan hattoki nafas olib bo'lmasdi. Murabbiyi imkon yo'qligini aytdi. Yana "Matluba"ga qaytdik. Ko'p o'tmay, zalni ikkiga bo'lishdi va yarmini taekvondochilarga berishdi.

Ana undan keyin muammolar boshlandi, joy tor, shovqin. Murabbiylar o'zaro ziddiyatlarga borib, joy talashib, ancha payt nizolashishdi. Mashg'ulotlar to'xtab qolaverdi. Yana nimalardir tiklangandek bo'lar, musobaqalar o'tkazilar, biroq men viloyat miqyosidan

nariga chiqmayotgan bu tanlovlardan, natijalarning dinamikasi yo'qligidan ichim xijil bo'laverardi.

Musobaqalar uchun tikdiriladigan sport kostyumlariga murabbiylarimiz "Svarovskiy toshlari bilan bezak beringlar, namuna sifatida Alina Kabayeva liboslarini olinglar", deb tayinlashardi. Aytilgan topshiriqlarni kanda qilmay bajarardim.

Oqibatda Alina Kabayevaning ham sportdagi yutuqlari tarixini o'rganib chiqdim. Asli Toshkentda tug'ilgan Alina bolaligidayoq Rossiyaga oilasi bilan ko'chib ketgan, o'sha yerda professional sportga mukkasidan ketib, shug'ullangandi. Badiiy gimnastikaga shu qadar mehrim tushib qoldiki, bu sport turi zo'r rivojlangan Rossiya, Ukraina, Belarus shaharlariga biror muddatga oilaviy ko'chib borsak-chi, degan xayollar ham tinchlik bermasdi... Lekin murabbiylarning bu zalda tinim bilmay to'qnashishlari, badiiy gimnastikaga aholi o'rtasida ehtiyoj katta bo'lsa-da, zallarning ehtiyojni qoplamasligi hafsalan o'sovutardi.

Borib-borib qizimning qobiliyatiga ham yuqori baho berayapmanmi, balki to'xtatarmiz kabi shubhali o'ylar keladigan bo'ldi. Shunday kunlarning birida zal talashish nizolari chog'ida mashg'ulotlar birdan to'xtadi. Hammasi bo'lib uzilishlar tufayli qizim 5 yil badiiy gimnastika bilan shug'ullandi. Mening ko'nglimda esa qizimni professional gimnastikachi qilish orzusi toshdek cho'kib qoldi. Lekin sport baribir sport-da, o'zining izini, albatta sezdiradi, oradan ancha tanaffus o'tsa-da,

litseyda ilk jismoniy tarbiya darsidayoq o'z kuchini ko'rsatgan. Basketbol to'riga ketmaket 5 marta koptokni tushirish bo'yicha berilgan sinov topshirig'ini guruhdan faqatgina qizim bajara olgan. Ustozi semestr bahong oldindan "5" deya alqagan.

Hozir ham ba'zi mashqlarini eslab bajarib ko'radi, qarang, haliyam suyaklarim qotib ketmabdi, benuqson bajaraman-a, deb qo'yadi. Yana, siz o'ylagandek sportchi bo'lolmadim-a, deb uznamo gapirib qoladi.

Men esa mayli, balki nabiralarimda ko'rarman orzularimni deb qo'yaman... Lekin hamon viloyatlarda yoxud shahar markazlarida ham badiiy gimnastikaga professional sport zallarining ko'paymayotganini ko'rib, dilimni ezgin kayfiyat qoplayveradi.

Nafaqa yoshiga yetsam, umrimning o'sha qismini sayohatlarga va nabiralaringiz to'garagiga qatnashga sarflashni niyat qilganman. Goh-gohida internetdan Alina Kabayevaning suratlari chiqib qolsa, "ehh" deb qo'yaman.

Siz-chi, yashayotgan hududingizda sport zallari yetarli deb o'ylaysizmi? Qizingiz, singlingiz, jiyanlaringiz, nabiralaringiz qaysi sport turi bilan shug'ullanadi? Shaxsan o'zingiz ularning to'garagini nazorat qilasizmi? Yoki ummondan bir tomchi bo'lib chiqayotgan oltin medal sohib va sohibalarini olqishlab qo'yib, qolganlarini ro'zg'orga bukish bilan bandmisiz?

Elmira HAZRATQULOVA



KO'TARINKI ruhda o'tdi



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz tumanida joylashgan harbiy qismda "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovining okrug bosqichi bo'lib o'tdi.

Qo'shinlarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, harbiy xizmatchilarning jismoniy va kasbiy ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, yangi bilimlarni yetkazishni o'z ichiga oladigan mazkur bellashuvlar okrug qo'mondonligi mutaxassislari tomonidan munosib tashkil etildi.

"O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovi doirasida umumqo'shin, aloqa, artilleriya, front orti ta'minoti, muhandislik, radiatsion, kimyoviy-biologik muhofaza singari bir qancha soha mutaxassislari "Eng ilg'or serjant", "Eng ilg'or vzvod (batareya) komandiri", "Eng ilg'or batalyon (divizion) komandiri", "Eng ilg'or brigada komandiri" nominatsiyalarida musobaqalarga kirishdi.

Tantanali ochilish marosimida okrug qo'shinlari qo'mondoni o'rinbosarlari musobaqa shartlari, belgilangan mezonlar haqida batafsil ma'lumotlar yetkazib, barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyat tiladi.

Dastlab saf ko'rigi jarayonida ishtirokchilarning tashqi ko'rinishi, kiyim rusumi va ofitserlik sumkasi jihozlarning to'liqligi tekshirildi. Shundan so'ng yurt himoyachilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi turnikda tortilish, 100 metr hamda 3 kilometr masofalarga yugurish mashqlarida namoyon bo'ldi. Shuningdek, taktik tayyorgarlik va test sinovlari jarayonlarida ishtirokchilarning soha yo'nalishlarida egallagan nazariy bilimlari baholandi.

Dala-o'quv maydonida o'tkazilgan amaliy otish mashqlarida avtomat va pistolet qurolidan nishonlarni bexato yakson etayotgan ishtirokchilarni kuzatib, harbiy xizmatchilar bellashuvlarga yuqori tayyorgarlik bilan kelganini sezish mumkin.

Shaffof tarzda baholab borilgan bellashuvlarda yuqori natijalarni qayd etgan ishtirokchilar okrug qo'mondonligi tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati

Harbiy-vatanparvarlik



KUCH va mahorat sinovi



etishgan bo'lsa, "Zakovat" intellektual o'yinida jamoalardan 5 nafardan ishtirokchi qatnashib, zehni, zukkoligi, bilimi va salohiyatini ko'rsatdi.

Shiddatli bahslarga boy o'tgan uchrashuv yakunida Qonliko'l tumanining Beshko'pir va Taxiotosh tumanining Do'stlik mahallalari ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallagan bo'lsa, Taxtakopir tumanining Atako'l mahallasi yoshlari Qoraqalpog'iston Respublikasi bahslarida tengsiz ekanini namoyish etib, mahallasi sha'nini final musobaqasida himoya qilish sharafiga muvaffaq bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar qimmatbaho sovg'alar hamda diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

**Kichik serjant
Abdullajon UMARALIYEV**
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

2024-yilda Mudofaa vazirligiga yurtimizdagi 2 546 mahallaning 1 mln nafardan ko'proq yoshlari birlashtirilgan bo'lib, ular bilan ishlash tizimi yaratildi. Ushbu tizimning samaradorligini ta'minlash, otaliqqa olingan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda tengdoshlari bilan kuch sinashish imkonini yaratish maqsadida ular o'rtasida harbiy-vatanparvarlik majmuaviy musobaqalari tashkil etib kelinmoqda.

"Biz bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori ostida tashkil etilgan musobaqa Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlarni harbiy-amaliy sport musobaqalariga keng jalb qilish, o'zaro madaniy-sport aloqalarini yo'lga qo'yish, intellektual salohiyatini oshirish, eng asosiysi, hayotda bilib-bilmay to'g'ri yo'ldan adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarishga ko'maklashishdan iborat.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning Nukus garnizonidagi harbiy qism va muassasalar negizida otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida musobaqaning Qoraqalpog'iston Respublikasi

bosqichi kuchli raqobat va shiddatli bahslar bilan bo'lib o'tdi. Majmuaviy musobaqada Qoraqalpog'istonning 16 tuman va Nukus shahridan kelgan 200 nafarga yaqin yoshlari "Harbiylashtirilgan sport estafetasi", "Arqon tortish" hamda "Zakovat" intellektual o'yini bahslarida o'zaro kuch sinashdi.

Majmuaviy musobaqaning birinchi sharti – "Harbiylashtirilgan sport estafetasi" bahslari doirasida yoshlar mahorat, chaqqonlik, tezlik, tibbiyot, kuch, ephillik, merganlik kabi harbiy-amaliy sport yo'nalishlarida yakkalik va jamoaviy tartibda o'zaro bellashdi.

Arqon tortish bahsida yoshlar jamoaviy kuchlarini namoyon

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish yurt posbonlarining manfaatlarini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuidir. Bu davlat tomonidan ularga xizmat va yashash uchun qulay sharoitlar yaratib beradigan kafolatlar hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, u harbiy xizmatchilar mehnatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

IJTIMOIY HIMOYA imkoniyatlari

Harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyati, uning yuqori intensivligi, ijtimoiy ahamiyati va mas'uliyati, harbiy majburiyatni sidqidildan bajarayotgan harbiy xizmatchilarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfning oshishi bilan bog'liq bo'lgan bir qator konstitutsiyaviy huquqlarning cheklanishi davlat tomonidan kafolatlanishi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchilar harbiy qismda o'z xizmat vazifalarini bajarishga kirishi bilan moddiy rag'batlantirish (*pul mukofotlari*) bilan ta'minlanadilar. Harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari, turmush o'rtoqlari va farzandlariga harbiy-tibbiyot muassasalarida bepul tibbiy yordam olish huquqi beriladi. Harbiy xizmatchilar va ular bilan birga yashovchi oila a'zolari uchun yangi xizmat joyida O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartib va me'yorlar bo'yicha yashash uchun turarjoy beriladi. Turarjoy bilan

ta'minlanmagan taqdirda, ularga har oyda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorda turarjoyini ijaraga olganlik uchun kompensatsiya puli to'lab beriladi. Harbiy xizmatchilar harbiy xizmatdan bo'shatilganda (*nafaqaga chiqarilganda*) xizmat yillari bo'yicha yoki bo'lmasa nogironligi bo'yicha pensiya ta'minoti bilan ta'minlanadi.

Harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari, shuningdek harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida yarador bo'lgan, kontuziya, shikast olish natijasida nogiron bo'lib qolgan yoki kasalliklarga duchor bo'lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsiyanomalari asosida belgilangan qabul kvotalaridan tashqari davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga o'qishga tanlovsiz qabul qilinadi.

2018-yildan bugungi kungacha haqiqiy harbiy xizmatchilarning 4 018 nafar farzandi alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib, tanlangan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga tavsiya etilgan. Shuningdek, harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida halok

bo'lgan harbiy xizmatchilarning 355 nafar farzandi vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsiyanomalari asosida belgilangan qabul kvotalaridan tashqari davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga o'qishga tanlovsiz qabul qilingan.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'llari va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish orqali ularning ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari tomonidan e'tirof etilishiga, shu bilan bir qatorda, ularda o'z xizmat vazifasiga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishi va samaradorligining oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarga yuklatilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Anvar HAMROYEV,
Strategik tahlil va
istiqlolni belgilash
oliy maktabi tinglovchisi

O'zbekiston chempionati



Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning karting turi bo'yicha O'zbekiston chempionati va birinchiligining uchinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 60 nafar sportchi belgilangan turli masofalarda "Mikro", "Mini", "Super mini", "125 OK junior", "KZ" va "KF-OK" sinflari bo'yicha karting sport mashinalarida bellashdilar.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqalar quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

O'zbekiston birinchiligining 3-bosqichi:

"Mikro" sinfida:

- 1-o'rin: Asilbek G'ulomjonov (*Sirdaryo v.*);
- 2-o'rin: Azizmurod Muhammadjonov (*Namangan v.*);
- 3-o'rin: Salax Urunov (*Toshkent sh.*).

"Mini" sinfida:

- 1-o'rin: Aleksandra Krilova (*Toshkent sh.*);
- 2-o'rin: Rustam Hamrayev (*Toshkent sh.*);
- 3-o'rin: Milana Kleyn (*Namangan v.*).

"Super mini" sinfida:

- 1-o'rin: Danil Shvetsov (*Toshkent sh.*);
- 2-o'rin: Arseniy Glova (*Toshkent sh.*);
- 3-o'rin: Shohjahon Komilov (*Namangan v.*).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin: Namangan viloyati;
- 2-o'rin: Toshkent shahri;
- 3-o'rin: Sirdaryo viloyati jamoalari.

O'zbekiston chempionati 3-bosqichi: "125 OK junior" sinfida:

- 1-o'rin: Amir Hamrayev (*Toshkent sh.*);
- 2-o'rin: Artyom Usheka (*Toshkent v.*);
- 3-o'rin: Dilxushbek Murodov (*Sirdaryo v.*).

"KZ" sinfida:

- 1-o'rin: Ayder Haydarov (*Toshkent v.*);
- 2-o'rin: Sergey Bagdasarov (*Sirdaryo v.*);
- 3-o'rin: Farrux Muratov (*Toshkent sh.*).

"KF-OK" sinfida:

- 1-o'rin: Kristina Shipkova (*Toshkent sh.*);
- 2-o'rin: Danil Alimov (*Toshkent sh.*);
- 3-o'rin: Salix Xayrullayev (*Namangan v.*).

Umumjamoa hisobida:

- 1-o'rin: Toshkent shahri;
- 2-o'rin: Sirdaryo viloyati;
- 3-o'rin: Toshkent viloyati jamoalari.

Musobaqalarning yopilish marosimida g'oliblik va yuqori natijalarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

O'zbekiston mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti
matbuot xizmati




“Virusli hepatit” atamasi ikki turdagi hepatitlarni – infeksiyali (virusli hepatit A va E) va zardob (virusli hepatit B, C, D) hepatitlarni birlashtiradi, ushbu hepatitlar klinik turi jihatidan bir-biriga o'xshaydi va asosan jigarining shikastlanishi hamda umumiy zaharlanish holatlari bilan ta'riflanadi.

Yoz va kuz mavsumida shaxsiy tarkib orasida infeksiyali hepatitlarning kelib chiqishi va tarqalishi uchun sharoit paydo bo'ladi, shuning uchun infeksiyali hepatitlar to'g'risida so'z yuritamiz.

O'tgan asrning 70-yillarida professor S.P. Botkin o'z kuzatuvlariga asoslanib, kataral sariqlik degan kasallik tabiatan yuqumlidir degan xulosaga kelgan. Botkin kasalligining viruslar chaqirishi hozirgi kunda shak-shubha tug'dirmaydi. A va E turdagi viruslar infeksiyali hepatit qo'zg'atuvchilari hisoblanadi, aholi orasida tez tarqalgani sababli “epidemik hepatit” deb ham ataladi.

Gepatit A va E viruslari odam uchun kuchli yuquvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, tashqi muhitga ancha chidamli hisoblanadi. Ular quritilgan yoki muzlatilgan holda bir yildan ortiqroq saqlanib turishi mumkin. Qo'zg'atuvchilarning turlari issiqlikka ham chidamli bo'lib, 45 daqiqa davomida qaynatilgandagina o'ladi. Gepatit kasalligi bilan og'rig'an bemor infeksiya manbai bo'lib hisoblanadi va atrofdagilar uchun yuqish xavfini tug'diradi.

Botkin kasalligi yoki infeksiyali hepatit



Infeksiyali hepatitlar yuqqandan so'ng yashirin davrining davomiyligi bir necha kundan 2-3 haftagacha davom etadi. Kasallik ko'pincha asta-sekin avj olib boradi, lekin ba'zida birdan boshlanishi ham mumkin. Kasallikning birdan boshlanishi ko'proq bolalarda uchraydi. Tana harorati ko'tarilib, et uvishadi, qorinda

og'riq paydo bo'ladi, ko'ngil aynib qayt qiladi. Darmon qurishi asta-sekin kuchayib boradi, lanjlik, serzardalik paydo bo'ladi, uyqu buziladi, bosh og'riydi, ishtaha pasayadi yoki tamomila yo'qoladi, bemorning ko'ngli aynib qusadi, to'sh osti sohasi va o'ng qovurg'a ostida og'irlik yoki og'riq paydo bo'ladi. Yoshi katta odamlarda muskul va suyaklarda og'riq paydo bo'ladi, badan terisiga turli allergik toshma toshishi mumkin. Kasallikning boshlang'ich davridayoq qon zardobidagi fermentlarning faolligi kuchayadi. Shu davrning oxiriga kelib jigar kattalashadi, siydikning rangi to'qlashib, axlat esa rangsizlanadi.

Yashirin davrining oxirgi kunlaridan boshlab, sariqlik paydo bo'lishining birinchi haftasigacha kasallik qo'zg'atuvchi viruslar axlat bilan birga tashqariga chiqib turadi. Bemorning axlati qancha vaqt mobaynida yuqumli bo'lsa, qoni bilan zardobi ham xuddi shuncha muddat davomida yuqumli bo'ladi.

Infeksiyali hepatitlar qo'zg'atuvchilarining yuqishida oziq-ovqat mahsulotlari, idish-tovoq, ichimlik suvi, bolalar o'yinchoqlari, ko'rpa-to'shak, pashshalar hamda bemor odamning qo'li ahamiyatlidir.

Infeksiyali hepatitlar bilan ko'pincha maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar kasallanadi. Kattaroq yoshdagi kishilar guruhida esa bolaligida virusli hepatit bilan og'rib o'tgan va bu kasallikka nisbatan immunitet hosil qilgan kishilar anchagina uchraydi. Infeksiyali

hepatitlarning maxsus davosi yo'q. Bemorlarni sog'ayib ketishi kasallikni barvaqt aniqlab, fursat o'tmasdan kasalxonaga joylashtirish, kun tartibi, parhezga rioya qilish hamda organizmning buzilgan funksiyalarining asliga kelishi uchun yordam beradigan dorilar bilan davo qilishga bog'liqdir. Kasallikning og'ir va o'rtacha turidagina emas, balki bu kasallik yengil o'tib turgan paytda ham bemor yotib davolanishi lozim. Bemorlarga davo qilishda to'g'ri ovqatlanish juda katta yordam beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sil, qandli diabet, surunkali me'da-ichak va yurak-qon tomir kasalliklari bor kishilarda xastalik ko'pincha og'ir o'tadi. Virusli hepatitning asoratlaridan biri o't pufak yo'lining zararlanishidir. Jigar faoliyatining buzilishi ham virusli hepatit xastaligining asoratlaridan biridir. Shu sababli virusli hepatit bilan og'rig'an bemorlar parhezga va rejimga qat'iy rioya qilishlari zarur. Bemorlar ko'proq suyuqlik iste'mol qilishlari lozim. Sabzavot va meva sharbatlari, shirin choy va sut ichish tavsiya etiladi, ovqat tarkibida esa tuz kamroq bo'lishi talab etiladi. Kasallikning 2-4-haftasi oxiriga kelib, davolanish yordamida bemorning ahvoli yaxshilanadi, axlat bilan siydikning rangi o'z holiga qaytadi, badan va ko'z olmasidagi sariqlik yo'qoladi, ishtaha ochiladi. Kasallik bilan og'rib o'tgan organizmda uzoq davom etadigan kuchli immunitet paydo bo'ladi.

Infeksiyali hepatitlarga qarshi kurashish, infeksiya manbaini aniqlab olish,

alohidalash hamda davolash, infeksiya yuqish yo'llarini to'sish bilan olib boriladi. Bundan tashqari kasallikka chalinmaslik uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim. Har doim hojatdan so'ng va ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish, tishlarni tozalashda faqat shaxsiy tish cho'tkalaridan foydalanish, maxsus idishlarda chiqarilgan yoki qaynatilgan suvni ichish, ovqat qoldiqlarini ochiq, ishlatilgan idish-tovoqlarni yuqiqsiz qoldirmaslik, meva va sabzavotlarni toza suvda yuvib iste'mol qilish talab etiladi.

Infeksiyali hepatitlarga qarshi kurashish, bemorlarni faol aniqlash, ularni alohidalash hamda davolash, infeksiya yuqish yo'llarini to'sish bilan olib boriladi.

Xastalikning oldini olish uchun, avvalo kasallik keltirib chiqaruvchi manbalarni yo'qotish lozim, atrof-muhit tozaligini saqlash, yotoqxona, oshxona va boshqa obyektlarda kasallikni qo'zg'atuvchilarga qarshi dezinfeksiya ishlarini olib borish kerak.

Kasallikning birlamchi belgilari paydo bo'lgandayoq, tibbiyot xodimiga zudlik bilan murojaat qiling. Tibbiyot yordamiga kech murojaat qilish yoki shifokor ko'rsatmasiz davolanish og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Tibbiy xizmat katta leytenanti F. NIYOZOV, B. AXMEDOV, Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassislari

Qaror va ijro

Yoshlar bilan manzilli ishlar

Harbiy prokuratura organlari tomonidan otaliqqa olingan yoshlar bilan manzilli ishlar muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

Andijon harbiy prokuraturasi tomonidan Jalaquduq tumanidagi Sharxoncheki mahallasida o'rganishlar olib borildi. Dastlab mahalla yettiligi faoliyati natijalariga e'tibor qaratilib, so'ngra mas'ullar ishtirokida xonadonbay asosda yoshlar bilan muloqot o'tkazildi. Unda yoshlarning muammo va takliflari tinglandi.

Jarayonda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 2 nafar yoshga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy ko'mak berilib, ularga yakka tartibdagi tadbirkorlik davlat ro'yxatidan o'tganligi haqidagi guvohnomalar topshirildi.

Shuningdek, 3 nafar yoshga kredit mablag'i va 1 nafariga yer uchastkasi ajratish orqali ularning bandligini ta'minlash bo'yicha bank va hokimlik mutasaddilariga tavsiyalar berildi.

Adliya polkovnigi Ilhom MAMATQULOV, Andijon harbiy prokurori

Muhabbat – qadim qo'shiq

1900-yil, Farg'ona viloyatining chekka qishlog'i. O'n besh yashar Robiya otasi kuni kecha Qo'qon shahridagi miskarlardan keltirgan naqshinkor chelakni ko'targancha, onasiga yuzlandi.

– Buvijon, o'rtoqlarim bilan mahalladagi hovuzdan suv olib kelsam maylimi?

– Hovuzga suvga borishing dadangga yoqmaydi, qizim. U yerdagi masjid qurilishida qancha erkaklar, begona musofirlar ishlayapti. Suv kerak bo'lsa, akalaring olib keladi, – keskin rad javobini berdi Rohila opa.

– Bitta o'zim borayotganim yo'q-ku, yonimda o'rtoqlarim bor, – arazdan lablari cho'chchaydi qizginaning. – Hovuzdan suv olamiz-u, qaytamiz.

– Dadangdan gap eshitishni istamayman, tinchgina uyda o'tir. Samarqandlik ustalar orasida yosh yigitlar talaygina. Kecha ularga tushlik olib borganimda o'z ko'zlarim bilan ko'rdim. Dadang bilan akalaring bog'dan qaytavermagach, paranjida panada turib ovqat uzatgan holimda otangdan qancha dashnom eshitdim. Sening borganingni bilsa, naq baloga qolaman.

– Enajoon, onamga tushuntiring, – ona-bolaning suhbatini jimgina kuzatib turgan Ashirbibi momoga yuzlandi Robiya. – Sheriklarim halitdan buyon ko'cha darvozasi oldida meni kutyapti.

– Rohilabonu, borsa boraqolsin, – keliniga buyurdi Ashirbibi momo. – O'rtoqlari kutib qoldi. Kun bo'yi uyda o'tirganidan keyin zerikadi-da yosh qiz. Suv bahonasida o'rtoqlari bilan ozgina ko'ngil yozib qaytadi. O'g'limga o'zim tushuntiraman.

– Rahmat, enajon, – shaddod qizgina momoning yuzidan erkanib o'pib qo'ydi-da, onasining ruxsatini ham kutmay, dugonalari tomon shoshildi.

– Bu qizni paranjiga kiritish vaqti bo'ldi chog'i, – qaynonasining gapini ikki qilolmagan Rohila opa qizining ortidan xavotirda qarab turdi va norozi ohangda qo'shib qo'ydi: – Uni juda erkalatib yuboryapsiz-da, buvijon...

Robiya dugonalari bilan hovuz bo'yiga yetib borganida, uch-to'rtta samarqandlik usta yigit suv olayotgan ekan. Qirqkokil sanamlarni ko'rib, ular shoshib qoldi.

– Kelinglar, qizlar, avval sizlarga suv olib beramiz, – o'rta bo'yli to'lacha yigit ularga yordam berishga hozirlandi.

– Ha, hovuzning suvi pasayib ketibdi, olishga qiynalasizlar, – vaziyatni tushuntirmoqchi bo'ldi ikkinchisi.

Qizlar hovuz oldidagi masjid qurilishida ishlayotgan qirqdan ziyod erkak nazarida uzoq turmaslik uchun qo'llaridagi suv idishlarni birin-ketin ularga uzatdi. Novchadan kelgan oq yuzli yigit suv to'la chelakni Robiyaga tutqazar ekan, beixtiyor nigohlar to'qnashdi. Ohu ko'zli qalamqosh soniyalar ichida uni sehrlab ulgurgandi. Yigitdan chelakni olaman deb qo'l uzatgan Robiyaning nozik barmoqlari

musofir ustaning qo'liga tegib ketdi-yu, qizgina sapchib tushdi. Uning hayrat ila boqib turgan nigohidan qutulish uchun mayda o'rilgan uzun sochlarini sermagancha, orqa o'girib yo'lga tushdi.

Qizlar hovuz bo'yidan birmuncha yiroqlashgach, yo'l bo'yidagi katta chinor yonida to'xtashdi.

– Robiya, senga suv olib bergan yigitning karaxt bo'lib qolganini ko'rdingmi? – sirli jilmaydi Jamilaxon. – Ortingdan termilgancha qoldi.

– To'g'ri, – uning fikrini tasdiqladi Xolniso. – Samarqandlik usta bir ko'rishdayoq senga aniq oshiq bo'ldiyov.

– Majnun bo'ldi deyaver, majnun, – qitmirligi tutdi Rayhonaning. – Qo'qonaravada Samarqandga to'yga borarkanmiz-da.

Qizlar sharaqlab kulib yubordi.

Dugonalarining hazilidan Robiyaning qovoqlari uyulib, qoshlari chimirildi.

– O'ylab gapirsalar-chi, buni buvim eshitsa bormi, meni ko'cha tugul hovli darvozasiga ham yaqinlashtirmaydi. Dadamning fe'li haqida gapirmasa ham bo'ladi, – arazlagan ko'yi tumtayib oldi u.

– Bo'ldi, shu gap shu yerda qolsin, – qizlarni ogohlantirdi Jamilaxon. – O'rtoqjonimning ota-onasi yolg'iz qizini qishloqda shuncha sovchi, shuncha oshiq-lari turganida musofir yigitga uzatarmidi. Uning otasini kimsan Madgiyaboy, deyilar axir...

Robiya dugonalarining gapidan qay darajada achchiqlangan bo'lmasin, uyga qaytgach, nima uchundir samarqandlik yigitning hayrat ila boqib turgan nigohini ko'z oldiga keltiraverdi. Oqish chehrasi, qora qoshiga yarashgan quyuq kiprikli katta-katta ko'zlari uni hamon ta'qib etib turardi, go'yo.

Oradan bir hafta o'tdi, Rohila opa qizini qayta hovuz bo'yiga yaqinlashtirmadi. Robiyaga tashqariga chiqishi uchun faqat otinoyidan Qur'on sabog'ini olish uchungina ruxsat tegardi.

Shunday kunlarning birida dugonalari bilan darsdan qaytayotgan Robiya aravaga yog'och yuklayotgan usta yigitlarga duch keldi. Qizlar yigitlarni ko'rib hayo va hayajondan lakkicha o'ralgan ro'mollarining bir uchi bilan xiyol yuzlarini to'sib, mayda qadam tashlagancha yo'l chetidagi yog'ochlar yonidan o'ta boshladi. Kutilmaganda Robiyaning uzun harir ko'ylagi bari yog'och butog'iga ilinib qoldi. Soniyalar ichida kimdir yordamga keldi. Noqulay holatdan qutulgan qiz minnatdor qiyofada haloskoriga qaradi. Yana o'sha samarqandlik usta yigit, yana o'sha hayrat ila boquvchi nigohlar.

– Rahmat, – eshitilar-eshtilmas bazo'r minnatdorlik bildirdi qiz.

– Sog' bo'ling, – ovozi qaltirab chiqdi yigitning.

Robiyaning hushyor dugonalaridan bu galgi tasodif ham chetda qolmadi. Bir tomondan voyaga yetayotgan qizlar uchun bu nihoyatda yoqimli mavzu edi. Shu sabab yigitlardan yiroqlashdi deguncha, qaqajonlar bu holga birin-ketin fikr bildira ketdi:

– O'rtoqjon, musofir yigit bilan bekorga to'qnash kelmayapsan, u seni yana bir bor ko'rish uchun Xudodan astoydil so'ragan ko'rinadi.

– Shuni ayt, u Robiyabonuga yana mahliyo bo'lgancha qoldi.

– Balki, bu taqdir belgisidir.

Momalarimiz taqdiridan qochib qutulib bo'lmaydi, deyishadi-ku. Keyin, o'rtoqjon, "rahmat" so'zini biram mayin aytdingki, u...

– Bo'ldi qilsalaring-chi! – dugonalarini jerkib berdi Robiya. – Nima bo'lgandayam, ko'ylagim yirtilishidan asrab qoldi u yigit. Shunga rahmat aytdim. Dadam bu matoni qishloqdan karvon o'tganida falon pulga olgan. Buvim kechagina tikib bergandi. Agar yirtilganida rosa dakki eshitardim.

– O'rtoqjon, nima desang degin-u, samarqandlik usta senga haqiqiy oshiq bo'lgan.

Ko'p o'tmay, musofir yigitning Robiyaga oshig'-u shaydoligi atrofga duv-duv gap bo'ldi. Bundan qizning qishloqdagi oshiqlarining mushti tugildi...

* * *

– Madgiyaboy, ho'o' Madgiyaboy? – Kelinglar, kelinglar, aziz mehmonlar, – xonadon boshlig'i xuftonga yaqin tashrif buyurgan ikki erkakka peshvoz chiqdi.

– Ming bor uzr, kech kirganda sizni bezovta qildik, – xijolatlik ila uzr so'radi mehmonlarning yoshi ulug'rog'i.

– Aslo unday demang, uzoq Samarqanddan kelgan sizdek aziz ustalar ostonamizga qadam ranjida qiladi-yu, bezovta bo'lamizmi, qani ichkariga marhamat, – xonadon sohibi ularni darvoza yonginasidagi mehmonxonaga taklif qildi.

Tortinibgina ichkariga kirgan mehmonlar tez ortga qaytishlarini ta'kidlab muddaoga o'tdi:

– Madgiyaboy, siz bilan qishloqqa kelganimizdan buyon tanishmiz, suhbatdoshmiz, – tomoq qirib so'z boshladi samarqandlik ustalar boshlig'i. – Qo'li ochiq tanti insonsiz. Masjid qurilishiga qancha yordam beryapsiz, ishchilarni mehmon qilyapsiz, sizdan barchamiz minnatdormiz.

– Masjid uchun, sizlar uchun qancha qilsak kam. Vodiya Samarqanddek uzoq shahardan kelib, qurilishga bosh bo'layotganlarning tahsinga sazovor. Bizdan yana nima xizmat, tortinmay aytavering.

– Rahmat, inim, biz boshqa masalada keldik. Bilasiz, shogirdlarimning ko'pi yosh yigitlar. Shulardan birini qishloq yigitlari o'rta olib kaltaklashibdi.

– Kaltaklashibdi? – rangi o'zgardi Madgiyaboyning. – Nima uchun, kim kaltaklabdi?

– Shoahmad ismli eng iqtidorli shogirdim bor. Shu yigitni sizning qizingizga oshiq bo'libdi, degan da'vo bilan obdan do'pposlashibdi. Nazarimda, qizingizga sovchi qo'yomoqchi bo'lgan yigitlar ko'rinadi.

– Shunday deng, – bir lahza bir nuqtaga tikilgancha jim qoldi xonadon sohibi. – Men albatta buning tagiga yetaman.

– Nima bo'lganda ham, bu masala tinchlik bilan hal bo'lsin, deymanda, Madgiyaboy. Yigitlar turishidan to'xtaydiganga o'xshamaydi, har kuni masjid atrofida tahdid bilan aylanib yuribdi. Shogirdim ham bir bandaning sevimli farzandi, uni menga ishonib yuborishgan. Hozir tabib kelib davolayapti. Ota-onasiga sog'-salomat topshirishim kerak axir.

– Qishloq yigitlari orasida shu darajada beshafqatlari borligiga ishongim kelmaydi. Ko'nglingiz to'q bo'lsin, hoziroq shu ishga kirishaman...

Mehmonlarni kuzatgan zahoti Madgiyaboy o'g'illarini chaqirdi va masalaga oydinlik kiritishga shoshildi... Ertasiga samarqandlik yigitni borib ko'rdi, suhbatlashdi va bir qarorga keldi: "Shoahmadni kuyov qilaman"...

Taqdiri birlashgan ikki yoshni hayotning bir olam sinovlari kutmoqda edi...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



MERGAN KAMUFLYAJI

Kamuflyaj (*camouflage* – fransuzcha niqoblamoq, pana qilmoq) bu hayvonlar yoki narsalarni ko‘rishni qiyinlashtirish yoki ularni boshqa narsa sifatida ko‘rinish uchun har qanday ranglar kombinatsiyasidan foydalanishdir. Masalan, zamonaviy askarning jangovar libosi va yuz bo‘yoqlari niqoblanish maqsadida qo‘llaniladi.

XIX asrda o'qotar qurollarning ko'payishi va ularning aniqqligi ortishi harbiy kamuflyaj ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, noaniq mushketlarning miqtiqlar bilan almashtirilishi jangda qo'shinlar xavfsizligini ta'minlashni va ularning manyovrchanligini ancha qiyinlashtirdi. Birinchi jahon urushi davrida texnologiya va sharoit natijasida harbiylarda kamuflyajdan keng ko'lamda foydalanish kuzatildi. Ayniqsa, morganlar o'zlari uchun maxsus niqoblovchi "Ghilliye kostyumi"dan foydalana boshladilar.

Niqoblovchi (*Ghillie*) kostyumi bu mato yoki to'q kiyim bo'lib, hududga mos ravishda iplar bilan qoplanadigan, ba'zan barglar va novdalar bog'langan va ixtiyoriy ravishda hududdagi barg parchalari bilan to'ldiriladigan tabiiy fonga o'xshash uchun mo'ljallangan niqoblovchi kiyimdir. Niqoblovchi kostyum insonni tabiiy muhitda niqoblashning eng samarali usullaridan biridir va harbiy yoki fuqarolik maqsadlarida keng qo'llanilishi mumkin. Bu maxfiy va yashirin harakatlanuvchi merغانlar, razvedkachilar, maxsus kuchlar va boshqa harbiy mutaxassislarning ajralmas atributidir. Ushbu kostyum ularga qulay istehkomlarni egallash, dushmani kuzatish, shonlarni yo'q qilish yoki qo'lga olish bo'yicha topshiriqlarni bajarish, shuningdek dushmanga fosh bo'lish va o'q ostida qolish xavfidan qochish imkonini beradi.

Ghilliye kostyumining tarixi

“Gilly” soʻzi shotlandcha “xizmatchi” yoki “yordamchi” degan maʼnoni anglatadi. Shotlandiyada ovchilar zodagonlarga ovda hamroh boʻlib, ularga oʻljani topish va qoʻlga olishda yordam bergan. Ular hayvonlardan yaxshiroq yashirinish uchun oʻt, barglar va boshqa materiallar bilan qoplangan jun adyoldan iborat maxsus kiyimlar kiyib olgan. Shunday qilib, shotland ovchilari kamuflyaj kostyumlarining birinchi kiyuvchilariga aylandi. XIX asrning oxirida niqoblovchi kostyumlar oʻzlarining mavjudligini dushmandan yashirishlari kerak boʻlgan harbiy merganlar tomonidan qoʻllanila boshlandi. Birinchi jahon urushi davrida

britaniyalik merganlar turli ranglarga bo'yalgan novdalar va barglar bilan bezatilgan paxta matodan tikilgan niqoblovchi kostyumlarini kiyib yurgan. Ikkinchi jahon urushi davrida niqoblovchi kostyumning to'r, arqon, ip, mato, patlar, terilar va hatto sun'iy barglardan iborat turlari keng tarqaldi. O'shandan beri niqoblovchi kostyumlar doimiy ravishda takomillashtirilib, turli sharoit va vaziyatlarga moslashtirib borildi.

Hozirda bunday niqoblovchi kostyumlarning yuzdan ortiq turlari ishlab chiqilgan va turli maqsadlarda harbiy sohada, ovchilik va sport, shuningdek ko'ngilochar ishtirokchilar tomonidan ishlatilishi mumkin. Niqoblovchi kostyum nafaqat kiyim, balki haqiqiy san'at asaridir. Bu merganga puxta niqoblanish, ya'ni boshqalarga ko'rinmas bo'lishiga yordam beradi va u uchun omon qolish imkonini yaratadi. Shuning uchun merganlarni tayyorlash kurslarida o'rganuvchilarga niqoblovchi kostyumlarni tayyorlash va ulardan samarali foydalanish o'rgatiladi.

Niqoblovchi kostyum talablari

Niqoblovchi kostyumning ko'p turlari mavjud bo'lib, ular shakli, rangi, materiali va ishlab chiqarish usuli bilan farqlanadi. Biroq merganning niqoblovchi kostyumi quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, masalan:

- niqoblovchi kostyum kurtka, shim, bosh kiyim va yuk qopidan iborat bo'lib, ular turli iplar, matolar, barglar, o'tlar yoki atrofdagi o'simliklarga o'xshaydigan boshqa materiallar bilan qoplangan bo'lishi;
- niqoblovchi kostyum yengil, chidamli, havo o'tkazuvchan, kiyish va harakatlanish uchun qulay bo'lishi;
- niqoblovchi kostyum rangi va tuzilishi foydalaniladigan hududga qarab tanlanishi;
- niqoblovchi kostyum doimiy ravishda o'zgartirib borilishi va o'zgaruvchan sharoitlarga yaxshiroq mos kelishi uchun yangi elementlar qo'shilishi kerak.

Pahmoq niqoblovchi kostyum
paxta yoki sintetik materiallardan tayyorlangan, tashqi tarafiga iplar tikilgan niqoblovchi kostyum turlaridan biridir. Ushbu kostyum yumshoq bo'lib, harakatlanish uchun ancha qulay. Bu niqoblovchi kostyum avvaldan tayyorlangan bo'lib, qulaylikni ta'minlaydi. Bu kostyum o'rmon sharoitlarida juda samarali.

Rasmiy niqoblovchi kostyum
 sintetik materialdan ma'lum bir joy uchun tayyorlanadigan, aynan o'sha joy tabiati tasviri tushirilgan niqoblovchi kostyumning noodatiy turlaridan biridir. Ushbu kostyum yengil, harakatlanishga qulay, shuningdek mohirona niqoblanishni ta'minlaydi. Bu kostyum ko'pincha ovchilar tomonidan ishlatiladi.

**Kapitan Baxtiyor SHOYKULOV,
Mudofaa vazirligi Merganlar
tayyorlash markazi
katta o'qituvchisi**

Reklama

“ORZU” OSH TUZI – YUQORI SIFAT VA KO‘P YILLIK TAJRIBA

☎ 93 555 10 92
93 550 10 92

The image shows a woman in a blue apron with the Orzu logo, holding a pink bag of Orzu salt. In the foreground, there are several bags of Orzu salt in different colors (pink, blue, orange) and a bottle of Orzu salt. A green circular logo with the text 'حلال' and 'HALAL' is visible in the bottom right corner.

MAHSULOTLAR SERTIFIKATLANGAN.

BUYUK IXTIROLAR

MUZLATKICH
QANDAY PAYDO BO'LGAN?

Bugungi kunda hayotimizni sovitkichlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Oziq-ovqat mahsulotlarini o'z holidek saqlash uchun bu uskuna haqiqatan ham buyuk ixtiro bo'lgan.



Bolajonlar, sovitkich qanday ixtiro qilingan? Bu uskuna paydo bo'lgunga qadar odamlar mahsulotlarni qanday saqlagan? Quyida bu haqda qiziq ma'lumotlar to'pladik.

Qadimgi davrlarda muzlatkich paydo bo'lgunga qadar odamlar mahsulotni sovitish uchun yerto'la, omborlardan, qor va muzdan foydalangan. XVIII asrda Yevropada ichimlikni sovitish uchun muz to'ldirilgan idishlardan foydalangan. Keyinchalik ammoniy nitrat va selitra tuzini suvda eritish yo'li orqali sovitishni amalga oshirgan. Bu moddalar o'zi erigan suvni sovitadi va shu tariqa suvning harorati pasayadi.


Birinchi muzlatkich sariyog' tashish bilan shug'ullanadigan amerikalik Tomas Mur tomonidan ixtiro qilingan. Uning muzlatkichi quyon terisi bilan qoplangan po'lat qutidan iborat bo'lib, quti yog'och vannaga joylashtirilgan va ustiga muz solingan edi.

XIX asrning o'rtalarida Jon Gori tomonidan birinchi marta sun'iy muz yaratildi va ishlab chiqarish uchun tatbiq qilindi.

1858-yili olamshumul kashfiyot – ammiak yordamida sun'iy sovuqlik olish mumkin bo'ldi. Bu voqea 20 yil o'tgach, katta miqdorda sun'iy muz ishlab chiqaradigan kompressorli agregat yaratilishiga asos bo'ldi. Shundan so'ng sovitish moslamalari katta-katta oziq-ovqat fabrikalarida qo'llanila boshladi. XX asr boshlarida Moskvada "Eskimo" nomli sovitkichlar ishlab chiqarila boshladi.

Zamonaviy muzlatkichlar ko'p jihatdan yarim asr oldin ishlab chiqarilgan sovitkichlardan farq qiladi. Ular shovqinsiz, energiya iste'moli jihatidan tejamkor, qulay va zamonaviy tashqi ko'rinishga ega, qolaversa, xizmat qilish muddati uzoqligi bilan ajralib turadi.

HUNARDAN



Burungi zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Bir kuni u bir kambag'alning qizini olmoqchi bo'lib, sovchi yuboribdi. Sovchilar kelib podshohning so'zini qizga aytishibdi. Qiz sovchilarga:

– Podshohga borib aytinglar, olmoqchi bo'lsa, men roziman. Lekin podshoh bir hunar bilsagina tegaman, bilmasa o'rgansin, – debdi.

Sovchilar podshohning oldiga kelib, qizning shartini aytishibdi.

Podshoh bu gapni eshitib, avval achchig'i kelibdi, so'ng o'ylanib turib, qizning gapi ta'sir qilibdi: "Podshohligim hunar emas ekan-da. Xayr, hunar ham o'rganay" deb, o'z o'rniga vazirini qoldirib, hunar axtarib chiqib ketibdi. Hamma hunarlarni ko'rib, gilamchilik ma'qul bo'libdi. Gilam to'qiydigan bir yaxshi ustani topib, unga shogird tushibdi. Uch yil-u uch oy deganda gilam to'qishni o'rganibdi. Bir gilam to'qib, qizning uyiga yuboribdi. "Hunar o'rgandik, shartingni bajardik", debdi. Qiz:

– Podshoh shartni bajargan bo'lsa, men ham so'zimda turibman, endi tegaman, – debdi.

Podshoh to'y-tomosha qilib, qizni olibdi, xotinidan ko'ngli to'lib, podshohligini qilib yuraveribdi.

Kunlardan bir kun shu podshoh mamlakatidagi elning savdogarlari, katta-katta boylaridan bir qancha kishi yo'q bo'libdi. Bu xabar podshohga yetibdi. Qancha amaldorlar axtarib, boylarning daragini topmabdi. Podshoh "Bularni o'zim axtarayin, shaharda bir sir borgan o'xshaydi, buni bilmasam bo'lmaydi", deb podshohlik kiyimlarini yechib, boshqa kiyimlar kiyib, odam tanimaydigan bo'lib, kechasi xalq yotgandan keyin shaharni aylanmoqchi bo'lib chiqib ketibdi. Aylanib yursa, uzoqdan bir chiroq ko'rinibdi. Podshoh to'g'ri shu chiroq ko'ringan joyga borsa, bir oshxona. Oshxonaning ichida ko'p odam ovqat yeb o'tiribdi. Eshikni ochib qarashi bilan oshxona egasining ko'zi podshohga tushibdi va:

– Nima ishingiz bor? – deb shohdan so'rabdi. Podshoh:

– Qornim och, ovqat yemoqchiman, – debdi. Oshxona egasi:

– Qani ichkari kiring, to'rga o'ting, – deb podshohni ichkari uyga olib kiribdi. Podshoh to'rga o'tayotib yerto'laga tushib ketibdi.

Qarasa, ro'parasida bir odam turibdi. U odam podshohning qo'lidan tutib, ichkari uyga olib kiribdi. Uyda odam juda ko'p ekan. Podshoh qo'rqib, indamay turgan ekan. Bir kishi o'tirgan

yeridan turib, qo'lga katta pichoqni ushlab "Qani, hozir navbat kimniki?" deb to'g'ri podshohning oldiga kelib, uni so'ymoqchi bo'libdi. Birovi kelib, kallasidan ushlabdi. Podshoh esidan adashib, xayoli qochibdi. So'ymoqchi bo'lganlarga:

– Sizlar kimsizlar, sizga jon kerakmi, mol kerakmi, pul kerakmi? – debdi. Ular:

– Bizga jondan boshqa bari kerak, u bo'lmasa jon kerak, hozir sening kallang kerak, – deyishibdi. Podshoh:

– Pul, mol topib bersam bo'ladimi? – debdi. Ular:

– Bo'ladi, – deyishibdi. Podshoh:

– Unday bo'lsa, bir hunar ko'rsataman, mening aytganimni qilasizlar. Men bir gilam to'qib beraman, shuni podshohga olib borsanglar ming tilla beradi, – debdi. Ular:

– Qani, hunaringni ko'raylik!

– deyishibdi. Podshoh u kerak, bu kerak deb gilam to'qish uchun kerakli narsalarni aytibdi. Haligi odamlar bozorga borib podshohning aytgan narsalarini olib kelishibdi. Podshoh ipakdan bir gilam to'qib:

– Mana bu gilamni podshohga olib boringlar. Podshoh sizga ming tilla beradi, – debdi.

Haligi odamlar gilamni ko'tarib, podshoh saroyiga olib borishibdi. Saroydan bir mahram chiqib, gilamni ichkariga olib kirib, kimga berishini bilmay, vazir bilan maslahatlashibdi. Ular podshohni yo'qotib hayron bo'lib yurgan ekanlar. Gilamni podshohning xotiniga ko'rsatibdilar. Xotini o'zining eri to'qigan gilam ekanini tanib, gilam keltirgan odamlarga ming tilla berib yuborib, orqasidan odam qo'yibdi. O'g'ri tillalarni olib, suyunib to'g'ri oshxonaga kirib boribdi. Orqasidan poylab kelgan odam vazirga xabar beribdi. Vazir bir qancha askarlarini olib kelib, oshxonani o'rab, ichkariga kirib podshohni topibdi. Podshoh qo'lga tushgan odamlarning barchasini ozod qilibdi. Odam o'g'rilarning qo'lini bog'lab, askariga haydatib, saroyga kelibdi. Ularning hammasini dorga ostiribdi.

Eng yaxshi yosh kitobxon

Mudofaa vazirligining
O'zbekiston
Yozuvchilar
uyushmasi bilan
hamkorlikda tashkil
qilingan "Eng yaxshi
yosh kitobxon"
tanlovining yakuniy
bosqichi "G'alaba
bog'i" yodgorlik
majmuasining
"Shon-sharaf"
davlat muzeyida
bo'lib o'tdi. Tadbirni
podpolkovnik
Sardorbek
Abdusamatov
boshqarib bordi.

Yakuniy bosqichda sakkiz nafar harbiy xizmatchi ishtirok etdi. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlaridan kapitan Sanjar Safarov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrugdan kichik serjant Saydalixon Sotixonov, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugdan kichik serjantlar Sherali Tursunov, Shohrux Sagindikov, Markaziy harbiy okrugdan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Nurali Mo'minov, Toshkent harbiy okrugidan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar G'iyosjon Oripov, Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligidan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Dostonbek Kamolov, Sharqiy harbiy okrugdan muddatli harbiy xizmat oddiy askari Behruz Suvonov uchta shart bo'yicha bellashdilar.

Avvaliga kitobsevarlar ming nafardan ko'proq edi. Tanlovning ikkinchi bosqichiga 130 nafar kitobsevar yetib keldi. Ular ham o'z navbatida saralanib, yakuniy bosqichda bellashadigan harbiy xizmatchilar sakkiz nafar bo'ldi. Ana shu sakkiz nafar kitobxon orasida birinchi bo'lish... oson emas.

Uchta shart quyidagilardan iborat: o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, keltirilgan parchalardan asar nomi va muallifini topish. Tanlov shartlarini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Alisher Boymurodov, uyushma yetakchi mutaxassisi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Hulkar Sherzodova, uyushmaning yosh ijodkorlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Niyatullo Melikulov baholab bordi.

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda



tashkillashtiriladigan boshqa tadbirlarni kamsitmagan holda aytish mumkinki, mazkur tadbir ular orasida eng qiziqarli, fayzli bilan alohida ajralib turadi. O'zbek adabiyotining bilimdonlari ko'pligi tabiiy, ammo harbiy xizmatchilar orasida jahon adabiyotining ham bilimdonlari ko'pligi quvonarlidir. Ayniqsa, Ernest Xeminguey, Erix Mariya Remark asarlari tahlilini tinglash hayratlanarli. Ishtirokchilar bir-biridan zukko, bir-biridan dono. Shu sababli ham birinchi o'rin sohibini aniqlash qiyin bo'ldi.

Hayotim davomida anchagina kitob o'qiganman. Shu sababli bo'lsa kerak, kitob o'qiydigan, o'qigan odamlar bilan aravani quruq olib qochadigan kitob o'qimagan odamlarni osongina ilg'ab olaman. So'nggi bosqichda haqiqiy kitobxonlar bilimlarini namoyish etdi. Bugungi kun yoshlarida imkoniyat ham, tanlov ham ortig'i bilan mavjud. Ularning katta avlodidan ustun jihatlarni tan olish kerak. Zamonaviy xorij adabiyotini asliyatda o'qishlari, o'zbek kitobsevarlari uchun mashaqqatli

tarjima ishiga qo'l urayotganlari, targ'ib qilayotganlari quvonarli. Asli mazkur tanlovning o'zi ham eng go'zal targ'ibot namunalaridan biridir!

Tanlovni kuzatish maroqli bo'ldi. Ayrim adiblar asarlari maktab darsliklariga kiritilgan. Maktab darsliklariga kiritilgan asarlarni o'z vaqtida o'qigan bo'lgansiz, ular xuddi toshga o'yilgan yozuvdek xotiraga joylanadi. Savollar orasida o'shanday asarlar ham bir nechta ekan. Bu ishtirokchilar uchun biroz yengillik yaratdi.

Harbiy xizmatchilar tanlovga jiddiy tayyorgarlik ko'rganliklarini tadbir davomida bir necha bor namoyish qildilar.

Tanlov o'z nomi bilan tanlov. G'olibni qanday aniqlash mumkin? Kichik serjant Shohrux Sagindikov va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi,



Behrom ABDURAHIMOV

oddiy askar Nurali Mo'minov eng yuqori balni to'plashdi. Ikkovlari orasidan birinchi o'rin egasini aniqlash... oson bo'lmadi. Roman va hikoya o'rtasidagi farq g'olibni aniqlashga yordam berdi. U qanday farq edi? Mashhur adibning mashhur asari bir-ikki marta hikoya deb aytilganida, ehtimol, hayajonga yo'yilgan bo'lar edi. Biroq romanni ketma-ket hikoya deb tahlil qilish jiddiy xato va shuning barobarida kitobxonning bilimiga shubha soladigan holat.

Shunday qilib tanlov natijalariga ko'ra, kapitan Sanjar Safarov faxrli uchinchi o'ringa munosib topildi. Ikkinchi o'rin kichik serjant Shohrux Sagindikovga nasib etdi. Birinchi o'rinni esa kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Nurali Mo'minov egalladi.

G'oliblar va ishtirokchilarni polkovnik Temur Narzullayev qutladi.

P. S. Parij Olimpiadasida ishtirok etgan turkiyalik mergan Yusuf Dikech yodingizdami? Kumush medal bilan to'rt yilda bir marta o'tadigan dunyo sport bayrami – olimpiada qahramoniga aylandi. "Eng yaxshi yosh kitobxon" tanlovi bilan Olimpiadani taqqoslash o'rinsiz, ehtimol kulgili tuyular. Ammo tanlovning sakkizinchi ishtirokchisi o'sha qahramonni yodimga soldi. Muddatli harbiy xizmat oddiy askari Behruz Suvonovni tanlov qahramoni deyish mumkin. Askar o'g'lon 29,4 ball to'pladi. Bosh hakamning izohlashicha, u so'nggi savolning javobini qiynalib topibdi. Nima ham derdik, hakam hamma vaqt haq!

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsd Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Zabo Sariyeva

Buyurtma: V-5805
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 902 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya